

I-lova. Bitiruv malakoviy ishining titul varag'i

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

AL-XORAZMIY NOMLI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

KIMYOVİY TEKNOLOGİYALAR

fakulteti

«KIMYOVİY TEKNOLOGİYALAR» kafedrası

**«YOG'-MOY CHIQINDILARI ASOSIDA XELAT TIPIDAGI
KOMPLEKS HOSIL QILUVCHI ZANGGA QARSHI QOPLAMA
OLISHNING LABORATORIYA REGLAMENTINI YARATISH »**

Bajaruvchi:



Ataboyev Z.B.

Rahbar:



Abdullayev M.J.

Urganch shahri 2019 yil

Mundarija

I	KIRISH.....	3
II	« YOG’-MOY CHIQINDILARI ASOSIDA XELAT TIPIDAGI KOMPLEKS HOSIL QILUVCHI ZANGGA QARSHI QOPLAMA OLISHNING LABARATORIYA REGLAMENTINI YARATISH » BO’YICHA ILMIY ADABIYOTLARINING VA PATENTLARINING TAXLILI.....	6
2.1.	Metallarni korroziyadan himoyalashning asosiy usullari.....	6
2.2.	Anorganik qoplamlar.....	13
2.3.	Gumirirlangan qoplamlar.....	16
2.4.	Polimerlar asosidagi asosiy himoya qoplamlari.....	19
2.5.	Bitum asosli qoplamlar.....	29
III	TAJRIBA VA TADQIQOTLAR QISMI.....	39
3.1.	Tajriba tasnifi.....	41
3.2.	Gossipol smolasi va texnogen resurslar asosida xelat tipidagi ximoya qoplama olish borasidagi tadqiqotlar.....	42
3.3.	Gossipol smolasini suvsizlantirish jarayoni.....	43
3.4.	Massaga kalsiy oksid qo’shish jarayoni.....	45
3.5.	Massaga karboksimetilselyulozani qo’shish jarayonini o’rganish	47
3.6.	Uratrapin qo’shish jarayonini o’rganish	47
3.7.	Mis kuporo’si va ruh oksid qo’shish jarayonini o’rganish.....	49
IV	YOG’-MOY CHIQINDILARI ASOSIDA XELAT TIPIDAGI KOMPLEKS HOSIL QILUVCHI ZANGGA QARSHI QOPLAMA OLISHNING LABARATORIYA TAJRIBA REGLAMENTINI YARATISH	54
V	IQTISOD QISMI.....	64
VI	UMUMIY XULOSALAR.....	88
VII	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR, PATENTLAR RO’YHATI.....	89

I. KIRISH

Mamlakatimizda mustaqillik yillarda olib borilgan keng ko'lamli islohotlar natijasida milliy davlatchiligidan poydevori mustahkamlanib, davlatimiz suvereniteti, chegaralarimiz dahlsizligi ta'minlandi, jamiyatimizda tinchlik va osoyishtalik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini kuchaytirish, qonun ustuvorligi, inson huquq va erkinliklari hamda manfaatlarini ro'yobga chiqarish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi. Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyat rivojini yangi bosqichga ko'tarish, hayotning barcha sohalarini liberallashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi haqidagi farmonni imzoladi. Strategiya loyihasi dolzarb hamda aholi va tadbirkorlarni tashvishga solayotgan masalalarni atroflicha o'rghanish, qonunchilik, huquqni muhofaza qilish yakunlari bo'yicha ishlab chiqilgan. Mazkur yo'naliislarning har biri mamlakatdagi islohotlarni va yangilanishlarni yanada chuqurlashtirishga oid aniq bo'limlardan iborat. Davlat dasturining uchinchi yo'naliishi "Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish" deb nomlangan. O'zbekistonning inovatsion rivojlanish turining hozirgi zamon modeliga o'tish uchun hamma zarur sharoitlarga ega. Bu model vujudga keltirgan ilmiy-texnikaviy salohiyatdan keng va samarali foydalanishga, fundamental va amaliy yutuqlarni, chuqur ilmiy talab qilinadigan texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etishga, yuqori malakali, iqtidorli ilmiy kadrlar sonini ko'paytirishga asoslanadi. Bu - mamlakatimiz jahondagi iqtisodiyoti va sanoati rivojlangan davlatlar qatoriga kirib borishining zarur sharti va mustahkam poydevori bo'lib hizmat qiladi.

Butun dunyo formatida olib borilayotgan qurilish va ishlab chiqarish ishlari analiz qilinsa bu sohada zangga qarshi qoplama larning o'rni beqiyos. U tengsiz zangga qarshi qoplama material bo'lib, yer usti va yer ostida, xatto turli aggressiv muhit ham ostida barcha qurilish konstruksiyalarni va magistral quvurlarni korroziya va erroziyadan himoya qilishda ishlatiladi.

Ushbu bitiruv malakaviy ish doirasida yechilishi lozim bo‘lgan masala yog’-moy chiqindilari asosida jahon standartlariga to‘la mos keladigan, xelat kompleks birikma hosil qiluvchi zangga qarshi qoplama olishning mukammal texnologiyasini yaratish va keng amaliyatga tadbiqu qilishdir. Yog’-moy kombinatlarining ko‘p ming tonnalik chiqindisini keng doirada ishlatalish ishlari bugungacha hal qilinmagan. Loyiha doirasida yog’-moy chiqindilari tarkibining asosini tashkil etuvchilar- aromatik birikmalar va tarkibdagi fenol, gidroksil, karbonil, karboksil kabi guruhlarni modifikatsiyalab, standart tarkibli xelat tipidagi zagga qarshi qoplama olishning texnologiyasi nazariy, ilmiy va amaliy jihatdan to‘lik isbotlanadi. Keng masshtabli ishlab chiqarish tashkil etishga zamin yaratiladi. *Yuqoridagilardan kelib chiqib, Ozbekiston Respublikasi hududida rudalar asosida metall ishlab chiqarish zavodi mavjud emas, mavjud bo‘lmish zavodlar ham metallarni qayta ishlab chiqaradi. Shunday ekan yiliga metallarning 15 % gacha yo’qotilishini hisobga olsak yog’-moy chiqindilaridan olingan xelat tipiga zangga qarshi qoplamatamiz mamlakatimiz iqtisodiyotiga katta foyda keltiradi.*

Bugungi kunda butun dunyoda korroziyaga qarshi kurashish dolzarb muommo hisoblanadi. Metallarning emirilishi natijasida sanoat korxonalari katta miqdorda iqtisodiy zarar ko’rmoqda. Shuning uchun bu zararlarni oldini olish chora tadbirlarini izlab topish kerak. Buning uchun korroziyani keltirib chiqaruvchi muhitni o’rganib chiqib shunga qarshi kurashish yo’llarini izlab topish kerak. Mamlakatimizda bugungi kunda antikorrozion qoplomalarga bo‘lgan talab asosan import hisobiga qoplanyapti. Shuning uchun korroziyaga qarshi qoplamalar yaratish dolzarb muommo hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi - Sanoat jihozlarini qorroziyadan himoya qiluvchi qoplamalar olishning lobaratoriya reglamentini yaratishdan iborat .

Bitiruv malakaviy ishimni tayyorlashda qimmatli maslahatlari bilan boyitgan prof. M. Jumaniyazovga o’z minnatdorchiligidagi bildiraman.

Bitiruv malakaviy ishimning maqsadi Yog’-moy chiqindilari asosida xelat tipidagi kompleks hosil qiluvchi zangga qarshi qoplama olishning labaratoriya reglamentini yaratishdan iborat, ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagilar vazifa qilib belgilanadi:

- kerakli ilmiy adabiyotlar, reaktivlar, uskunalarni yig'ish, gassipol smolasini olib kelish, uratrapin, vermuklit, korboksilmetilseluloza,kaltsiy oksidi, erituvchi va boshqalarni keltirish, turli yog'-moy kaminatsiyalarining manbaalaridan olingan gassipol smolasini suvsizlantirish jarayonini o'rganish;
- gassipol smolasi asosida zangga qarshi xelat tipidagi kompleks hosil qiluvchi qoplama olishda yaroqli bo'lган bitumlarni sintez qilish qonunlarini o'rganish, ta'sir qiluvchi komponentlar nisbatini aniqlash;
- tadqiqot obyekti va xom ashyo va tayyor maxsulotlarni analiz qilish usullarini belgilash;
- xelat tipidagi qoplama olishda laboratoriya texnologik reglamentini yaratish;
- texnologik sxema tanlash va uning tavsifini kelyirish;
- xulosa yozishdan iborat.

Tadqiqot natijasida xelat tipidagi kompleks hosil qiluvchi qoplama olishga bo'lган bitumlarning optimal tarkiblarini olish, ushbu tarkibga uratrapin, korboksilmetilseluloza, mis kuporo'si, organik erituvchi, kaltsiy oksidi, bura ta'sirini o'rganish va tegishli xulosalar qilishda yog'-moy kaminatlari ko'p tonnali chqindisi gassipol smolasi asosidagi bitumlarni qo'llab yangi turdag'i zangga qarshi va turli muhitlarga chidamli kompleks qoplamani fizik mehanik xossalarini aniqlash.

.

II. SANOAT JIHOZLARINI KORROZIYADAN HIMOYALOVCHI QOPLAMALAR HAQIDA ADABIYOTLAR TAXLILI

2.1.Metallarni korroziyadan himoyalashning asosiy usullari

Metallarni krroziyadan himoya qilish muammosi metalldan foydalanish bilan bir vaqtning o'zida paydo bo'ldi. Korroziya jarayoni, tabiat qonunlari, o'zgarishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, bu qonunlarni o'rganib, biz zanglashdan zararli ta'sirini kamaytirishimiz mumkin. Ma'lumki, metall kuchlanish holatida bo lganda yemiruvchi moddaning ta'siri korroziya jarayonini o'ta tezlashtiradi. Agar kuchlanish konstruksiya bo'ylab notekis tarqalgan bo'lsa, emirilish yanada kuchayadi. Kimyoviy ishlab chiqarishda yuqori unumдорлик va yuqori mexanik kuch ostida ishlayotgan uskunalar aralashtirgichlar, sentrafugalar, nasoslar, bug' latish uskunalar — yemiruvchi muhit ta siri sababli tez ishdan chiqadi. Cho'zuvchi kuchlanish ostidagi bu uskunalarda yemiruvchi muhit tasirida korrozion darz hosil bo'ladi [1].

Ayniqsa, uskuna detallarida issiqlik va texnik ishlovdan so'ng, qoldiq kuchlanishlar bo'lsa, darzliklar paydo bo'lish imkoniyati ortadi. Payvand chok ulamalari ham yuqori zo'riqish nuqtalaridir. Korroziyaviy darzlanish tezligi eritma konsentrasiyasi temperaturasi va metall tuzilmaviy o'ziga xosligiga bog'liq. Bir paytning o'zida yemiruvchi muhit va cho'zuvchi kuchlanish ta'siridagi metallarning yemirilishi korrozion charchoqlik deb ataladi. Kimyo sanoatida mashina va uskunalar detallarning shu ko'rinishdagi yemirilish holati tez-tez uchraydi. Korrozion charchoqlik holatidagi metallarga kuchsiz kuchlanish ta'sirida ham yemirilish kuchayadi, ayniqsa bu kuchlanish davriy bo'lsa, yemirilish o'ta kuchayadi. Uskunalarni korrozion darzlanish va kuchlanishdan himoyalash uchun bиринчи navbatda metallarni to'g'ri tanlash va detal hamda bo'g'inalarni yasashga e'tiborni qaratish lozim. Metall sirtini yaxshi silliqlash ham korrozion darzliklar hosil bo'lishini 2 - 3 marotaba kamaytiradi. Korroziyaga qarshi himoya qilish usullari, uning ta'rifi bilan ta'qib qilinadi. U metall va atrof-muhit o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi, unga qarshi kurashishning quyidagi asosiy usullari mavjud:

- 1) Metallni aggressiv muhit ta'siridan qoplamlar asosida himoyalash.

2) Agressiv muhit tarkibini o'zgartirish.

3) Elektrokimyoviy himoyalash usuli.

Birinchi usulda metall sirtiga turli qoplamlarni qoplab, metal o'ziga nisbatan agresiv atrof-muhitdan himoya qilanadi. Bu qoplamlarga misol qilib, tuzlar (fosfatlar) va boshqa metallar, minerallar, sement, qatronlar, plastmassa, bo'yoqlar, Laklar, emallar va metallarning oksidlari va moylash materiallarini keltirish mumkin. Qoplama metallning korroziyaga qarshiligini oshiradi va metallning funktsional xususiyatlari o'zgarmaydi [2].

Himoya qilishning ikkinchi usuli, turli reagentlar turlari yordamida agressiv atrof-muhit ta'sirini, o'zgarishiga asoslangan. Shunday qilib, aksariyat korroziyaga havo kislороди sabab bo'ladi, shuning uchun mahsus havolantirgichlardan (daeratorax) foydalaniladi. Bular yordamida kislard o'rniga gidrazin, natriy sulfit va xokazolardan foydalaniladi. Agressiv atrof-muhitning ta'sirini kamaytirish uchun ingibitrlardan foydalaniladi. Atmosfera ta'siri natijasida yuzaga keladigan korroziyaga qarshi uchuvchan ingibitrlar qo'llaniladi [3].

Korroziyaga qarshi kurashishning uchinchi usuli elektrokimyoviy usul hisoblanadi. Korroziyadan himoyalashning elektrokimiyyoviy usuli keng qo'llanilib, bu usulni qo'llash metallning elektrokimiyyoviy tabiat, ishlatish sharoiti va maqsadi, korrozion muhitning agregat holati, agressivligi va tarkibiga bog'lik bo'ladi. Kimyo sanoati korxonalar jixoz va uskunalari ochiq havo (atmosfera), tuproq, suvli xamda suv-uglevodorodli muhitlarida ishlatiladi. Bunday sharoitda ishlatiladigan metall uskunalarni korroziyadan himoyalashda turli elektrokimyoviy himoya usullardan foydalaniladi. Bularga elektrokimyoviy himoyalashning katot, anot, protektor va elektrodrenaj turlari kiradi [4].

Korroziyaga qarshi himoyalanishning samarali usuli-oqilona dizayin va metall tizilmalarini to'gri ekspluatatsiya qilish hisoblanadi. Qurilish va mantaj ishlarini to'g'ri tashkil etish metallarni korroziyalanishini kamaytiradi [5].

Metal qoplamlar bilan korroziyaga qarshi himoyalash metall qoplamlari - metallarni korroziyaga qarshi himoya qilishning eng keng tarqalgan usullaridan biri. Bunday qoplamlar korroziyaga qarshi himoya, balki bezak berishni ta'minlash, qarshilik, elektr o'tkazuvchanlik, yuqori xaroratga chidamlilik, sirt qattiqlik va bezak berish va boshqa maqsadlarda qo'llaniladi [6].


Metall va qotishmalarning korrozion chidamliligi chuqurlik ko'rsatkichiga asoslanib, 10 balli shkalada quyidagi jadvaldan foydalanib, aniqlanadi:

1- Jadval

Metall va qotishmalarning korrozion chidamliligi


Nº	Chidamlilik guruhi	Chuqurlik ko'rsatkichi, mm	ball
I	Mutloq chidamli	< 0.001	1
II	Ota chidamli	0.001 - 0.005	2
		0.005 - 0.01	3
III	Chidamli	0.001 - 0.005	4
		0.05 - 0.1	5
IV	Chidami kamaygan	0.1-0.5	6
		0.5 - 1.0	7
V	Oz chidamli	1.0 - 5.0	8
		5.0 - 10.0	9
VI	Chidamsiz	> 10.0	10

Anod qoplamlar himoyalangan metall nisbatan manfiy zaryadli metalni qo'llash orqali amalga oshiriladi. Bunday sharoitda himoyalangan yuzalarning hizmat muddati, qoplamlarda korroziyaning tezligi va qalinligi bilan aniqlanadi. Ular metalni nafaqat mexanik ta'sirdan balki elektrokimyoviy, anodlar korroziyani sekinlashtiruvchi funksiyani, tayanch metal katod bo'lib u emirilmaydi, qoplamlar elektrokimyoviy kantatkni saqlab qolgan holda metal va sistemadan tok etarli oqim orqali o'tadi. (1-rasm) Shuning uchun bunday qoplamlarda uskanalarning g'ovakdorligi muhim ro'l o'namaydi. Anod qoplamlar temirni odatda yuqori korrozion chidamlilik va odatdagি atmosfera korroziyasidan himoyalash, neytral yoki bir oz nordon muhitlarda ishlatalish mumkin. Anod qoplamlarni qoplashda temir ustidan rux va kadmiy qoplanadi [7].



1-rasm. Anod qoplamlar Katod qoplamlar metallarni qoplashda ko'roq salohiyatga ega.

Bunday qoplamlalar metalni ishonchli himoya qiladi, faqat jarayon davomiyligini taminlash kerak, aks holda galvonik elementga aylanadi. Katot himoyalashda metal tayanch hisoblanadi, anod emiriladi. Katod qoplamlalar metalni mexaniv va agressiv atrof-muhit ta'siridan himoya qiladi. Katod qoplamlarni qoplashda temir ustiga mis, nikel, kalay, ko'rg'oshgin va xrom qoplanadi. Metal qoplamlarni qoplash qiyin bo'lsada ular nometal qoplamlarga qaraganda mexanik mustahkam. Bunday qoplamlarning qoplashning, galvanik, kimyoviy, diffusion, metalaizo- lyatsiya va termamehanik usullari mavjud Metal qoplamlar bilan korroziyaga qarshi himoyalash metall qoplamlar - metallarni korroziyaga qarshi himoya qilishning eng keng tarqalgan usullaridan biri. Bunday qoplamlar korroziyaga qarshi himoya, balki bezak berishni ta'minlash, qarshilik, elektr o'tkazuvchanlik, yuqori xaroratga chidamlilik, sirt qattiqlik va bezak berish va boshqa maqsadlarda qo'llaniladi [8].



2-rasm. Katod qoplamlar Galvanik qoplamlalar

Galvanik qoplamlarni olish usilida tegishli tuzlar eritmalarini elektroliz natijasida metalga cho'kadi va qoplanadi (elektroliz usuli). Bunday qoplamlarni qoplashda, kotod va anod shaklida eritmadan metal plastinkaga cho'kadi metalga qoplangan qatlam qalinligini quyidagi formula bilan aniqlash mumkin.

$$S = (D_k C_{nt}) / (60y)$$

Bu erda s-qatlam qalinligi, mkm; D_k - katod to'kinining zinchligi, A/dm ; C -

eritmadiagi metalning elektrokimyoviy ekvivalenti, g/(A^{*}ch); n - tokning chiqishi,%; t - eliktroliz vaqt, min; metalning zichligi, g/sm [9].

Galvanik qoplamlar asosan temir va uglerodli po'lotlarni korroziyadan himoya qilish uchun ishlataladi. Galvanik qoplamlardan rux va kadmiyli qoplamlar eng ko'p tarqalgan (butun dunyo bo'yicha ishlab chiqarilgan ruxning taxminan 40 % qoplamlar sifatida ishlataladi. Yuqori sifatli, yaxshi tashqi ko'rinishli, yuqori adgeziyalı qoplamlarni olish uchun metal yuzasini yaxshilab tozalagan holda qoplash orqali olish mumkin. Galvanik qoplamlarning qalinligi 1...100 mkm bo'ladi. Qoplamlar quyidagi funksiyalarga ega :

- korroziyadan himoyalash (ruxli, kadmiyli,kalayli qoplamlar);
- himoya va bezak berish hususiyatiga ega (nikel ,xrom ,kumush,oltin);
- elektr o'tkazuvchanlikni oshiradi (mis, kumush,oltinli qoplamlar);
- qattiqlik oshadi va qarshilik kamayadi (xromli ,rodiyli palladiyli qoplamlar);
- magnitli qatlamlar olish (Ni-Co ,Fe-Ni eritmadiagi qotishmalari);
- yuzada aks ettirish xususiyatini oshiradi (kumushli , rodiyli ,palladiyli,xromli qoplamlar);
- ishqalanish koifisentini kamaytiradi (Sn-Pb, In-Pb larning eritmadiagi qotishmalari [12].

Qoplamlarning qoplash sifati ko'p jihatdan ularning tuzilishi bilan belgilanadi. Nozik kristalli qoplamlar ko'proq zinch yaxshi himoyalananadigan mahsulotlar yuzasiga qoplanadi. Kerakli tuzilishli, sifatli qoplamlar olish uchun quyidagi talablarga rioya qilish zarur:

- 1) qoplash paytida kuchlanish iloji boricha katta bo'lishi kerak;
- 2) eritma konsentratsiyasi yuqori bo'lishi kerak;
- 3) kislotali muhit (pH-5), neytral muhit (pH-6.7) bolishi kerak;
- 4) harorat va tok zichligi ko'proq bo'lishi kerak;

5) qoplamaning tuzilishini oshirish maqsadida elektrolitlarga mahsus qo'shimchalar qo'shish kerak. Metall qoplamlar turlari nikel qoplamlari asosan elektroliz yo'li bilan hosil qilinadi. Ular metal yoki mis qoplamlar ustiga to'g'ridan-to'g'ri qoplanadi. Qoplamlarni yuzasini tekislashda misdan foydalilanadi. Bu nikelli qoplama

yuzini kamaytirish orqali amalga oshiriladi(nikel misdan qimmat turadi). Bu ish qoplama yuzasida pufakchalar qolmasligi uchun ishlataladi.Yopiq binolarda qoplama - 0,008-0,013mm yopiq binolardan tashqarida esa 0,02....0,04 mm kimyo sanoatida esa 0,025mm qalinlikda qoplanadi. Qoplama tez o'z rangini o'zgartiradi,qoplama rangini o'zgartirmasligi uchun nikel ustiga yupqa qilib xrom qoplanadi [12].

Qo'rg'oshinli qoplamlar qo'g'oshin eritmasiga qoplamani cho'ktirish orqali va elektroliz yo'li bilan qoplanadi. Ishni engillashtirish uchun eritmaga qalay qo'shiladi (bir necha foiz). Agar eritma tarkibida qalay ko'p bolsa (masalan 25%) kalayli qoplama deb aytiladi.Bunday qoplamlar havo sharoitiga chidamli boladi va korroziyani oldini oladi. Aslida bularni chidamliligi ko'p emas. Bular tom ustini yopishga benzobaqlarning ichki yuzasini himoyalashda ishlataladi. Istimol suvi va oziq - ovqatlari bilan birga ishlatilmaydi[13].


Ruxli qoplamlar rux eritmasiga qoplamani cho'tirish orqali va elektroliz yo'li bilan qoplanadi(ular egiluvchanligiga ko'ra mo'rtligi yuqoriroq). Atmosfera sharoitida korroziyaga chidamli. Qoplama qalinligi 0,03 mm bo'lsa ishlatalish muddati qishloq vashahar atrofida 11 yil dengiz bo'larida esa 8 yil sanoat atmosferasida 4 yil. Eng oz korroziya tezligi quyidagicha pH -7 12 ...12,5. Rux qoplalamasi po'lotni dengiz suvidan yaxshi himiya qiladi. 1 yil davomida rux qoplamasini 0,03mm da qoplanadi. Shunday qilib 0,13mm qalinlikdagi rux po'lotni 4-5 yil mobiynida korroiyadan saqlaydi. Doimiy issiq suv tasirida rux qoplamasini ishlatalish kam foyda beradi. Chunki teshik hosil boladi. Bu holat sovuq suvda yuz bermaydi ($t < 50^{\circ}\text{C}$) deaerirovannoy goryachiy. Rux bilan turbalar,mashinlarning bazi bir qismlari temir tunukalar, tom yopishda ishlataladigan tunukalar qoplanadi. Bunday qoplamlar nafaqat nam havoda,balki ochiq havoda, CO_2 bilan ifloslangan joylarda ham katta foyda beradi. Ular benzindan ,yog'lardan va organik eritmalardan yaxshi saqlaydi. Lekin nordon va ishqoriy eritmalardan yaxshi saqlay olmaydi [14].

Kadmiy qoplamlar faqat elektroliz yo'li bilan olinadi.Kadmiy va temirning qoplamlarda farqi kam ,shuning uchun ham katod himoyasi bilan ishlangan kadmiy qoplamasiga talabni kamaytiradi. Chunki bunga nuqsonlar sabab bo'ladi. Rux qoplamasini bilan kadmiy qoplamasini solishtirilganda kadmiy qoplamasini rux qoplamasiga nisbatan

qadmiy qoplamasasi po'latni nam havoda darzlanishdan ishonchliroq saqlaydi. Kadmiy ruxga nisbatan qimmatliroqdir lekin rux qoplamasiga qaraganda metallik hususiyatini ko'proq saqlaydi. Elektr o'tkazuvchanlikga yaxshiroq, payvandni yaxshi tutadi shuning uchun ham elektro texnika sanoatida ko'proq ishlatiladi. Shuni ham hisobga olish kerakki kadmiy qoplamar ochiq havoda samarasi kamroq. Kadmiy ishqoriy korroziyaga chidamliroq lekin kislata va ammiak bilan eritmalarda tez zanglanadi. Kadmiy tuzlari zaharli shuning uchun ham u oziq - ovqat sanoatida ishlatilmaydi. Rux esa uncha zaxarli emas shuning uchun ham suv bilan ishlatilishi mumkin lekin oziq -ovqat solishga ishlatilmaydi [15].

Kalay qoplamar konserva bankalarini yasash uchun ishlatiladi. Kalay qoplamlarning asosiy qismi elektroliz yo'llibilan olinadi (oq tunuka elertrolitik). Kalay tuzlarining zaharsizligi ko'proq oziq -ovqat sanoatida ishlatiladi. Kalay qoplamasining qalinligi o'z eritmasidan kelib chiqib 0,0015-0,0038mm, elektroliz yo'li bilan esa 0,00045mm. Eliktroliz yoli bilan olingan qoplama kichik qalinlikda qoplanganda pufakchalar hosil bo'ladi shuning uchun ham ichki qoplamlarni hosil qilishda ishlatiladi. Chunki kalay qoplamlari oziq -ovqat bilan aloqaga kirishganda temirga nisbatan anodlik hususiyatiga ega bo'ladi va ishonchli himoya hosil bo'ladi. Agar kalay qoplamasasi ishlatilgan joyning barchasi korroziyaga uchragan bo'lsa ham kalay qoplamlarda vodorod ajralib chiqmaydi. Kalayli qoplamar yumshoq suvga chidamli neytral joyda kislatalar va ishqorlar bilan alqaga kirishdi. Kalay qoplamar truboprovodlarda ishlatilmaydi chunki ular qimmat turadi [16].

Metal holatini tiklash uchun kimyoviy qoplamaning suyuqlik holatidan foydalaniladi. Ko'pchilik holatlarda nikelli va kalayli qoplamar shunday usulda olinadi. Nikel qoplamar olishda asosiy komponentlar eliktrolit paytidagi nikel tuzlari barqarorlashtiruvchi (gipofosfit, bor gidridlari) va qo'simcha stabillashtiruvchi eritmalar qo'shib elektroliz qilinadi. Bu holatni quyidagi tenglama orqali ifodalash mumkin :



Jarayonni amalga oshirishda temir va uning qotishmalarini yuzasini nikel bilan qoplashda kobolt, alyumiyniy polladiy katalizatr vazifasini bajaradi. Mis va uning qotishmalar yuzasini nikel bilan qoplashda nikel va alyumiyniy simlari o'zaro

kantaktlashtiriladi. Jarayon qaynash temperaturasiga yaqinroq temperaturada sodir bo'ladi. Bu aralashmaning tarkibi quyidagicha nikel xlorid geksogidrat - 30g/l; natriy gipofasfit -10 g/l; natriy gidroksiatstetat - 50 g/l pH=4...6. Bu aralashmadan nikel fosfidni o'tqazish tezligi taxminan 0,015 mm/s ga teng. Bu qoplama qoplamadagi fosforining miqdori 7.9 % tashkil qiladi. Qoplama tarkibida fosforining bo'lishi past temperaturada kechishni taminlaydi.(masalan 400 °C [17].

Kimyoviy nikel qoplamlar yuqori mustahkamligi va korroziyaga chidamliligi bilan ajralib turadi. Ularning asosiy avzalligi -har qanday mahsulot yuzasida teng taqsimlanadi. Kimyoviy nikel qoplamlarini bazi boshqa metallar va metalmaslar (shisga, plasmassa) mahsulotlar yuzasiga qoplash mumkin [18].

2.2.Anarganik qoplamlar

Silikatli emallar, silikatli shixtalar yumshatish darajasigacha qizdirilib tozalangan metal yuzasiga qoplanadi. Noorganik qoplamlar orasida ular eng ko'p tarqalgan. Ularni tayyorlashda dala shpati, kvars, bura va (TiO_2 , BeO , ZrO_2 , MgO) oqsidlardan foydalaniladi. Emalli qoplamlar asosan po'lotga, ayrimlari cho'yanga, misga, latunga yaxshi ishlatiladi. Stekloemallar metallarni korroziya va tashqi tasirdan yaxshi saqlaydi. Ular normal va yuqori haroratlarda suv va havo o'tkazmasligi bilan ajraliob turadi. Asosiy kamchiligi mehanik ta'sir va zarbaga chidamsiz. Atmosfera sharoitida emallangan po'lotlar uzoq vatq xizmat qiladi. Ularning asosiy buzulishiga, qoplamada setka teshiklari paydo bo'lishi va shu joyda zang tushiga olib keladi [19].

Asosiy bo'g'lovchi materiallar asosli qoplamlar. Bunda asosiy ro'lni qalin sementli qoplamlar egallaydi. Ularning avzalligi, arzon narxdaligi tayyorlash osonligi, qoplash va tuzatish osonligida. Boshqa metalmas qoplamlardan farqli darajasi shundaki, sement qoplamlarda metalning korroziyalanishi past, yuqori pH muhitida qo'llanilishi mumkin. Qoplamaning qalinligi 0.25 mm, qalin qoplashda setkalardan foydalaniladi. Bunday qoplamlar po'lat cho'yan va suv quvurlarini himoya qilish uchin ishlatiladi. Ulardan 60 yildan ko'proq vaqt maboyinida foydalanish mumkin. Bunday turdag'i qoplamlarni suv va neft rezervuarining ichki yuzasini, kimyoviy mahsulotlar saqlanadigan sig'implarda qo'llaniladi. Ularning kamchiligi - kimyoviy ta'sir va termik zarbaga chidamsizlidigkeit [20].

Konversion qoplamlar-bu qoplamlar tarkibiga (fosfatli, oqsidli, xromatli qoplamlar) kiradi. Konversion qoplamlarning himoyalanish darajasi, metal qoplamlaridan keyin turadi, ammo qoplash osongi, metallarga yaxshi adgeziyalanishi tufayli keng tarqalgan.

Fosfatlash - qora va rangli metallar sirtida fosfat qoplamlar olish usulidir. Bu usul metallarning fosfat kislota va uning tuzlari eritmalar bilan ta'sirlashib, metallar sirtida suvda erimaydigan fosfat tuzlaridan iborat qoplamlar hosil qilishga asoslangan. Fosfat qoplamlar olish uchun ishlatiladigan moddalar anod ingibitorlari qatoriga kiradi. Fosfat qoplamlarning elektroizolatsion xossalari yaxshi bo'lganligi sababli ulardan elektromashinalar qismlarini tayyorlashda elekrotexnik va boshqa po'latlar sirtida elektroizolatsion qavat hosil qilishda foydalilanadi [21].

Har qanday o'lcham va shakldagi buyumlami fosfatlash mumkin, bunda harorat darajasi turlicha bo'lgan fosfatlovchi eritmalar ishlatiladi, fosfatlash uchun ketgan vaqt esa qisqa bo'ladi. Metall buyumlami bo'yashdan oldin fosfatlash bo'yoqlaming po'lat bilan mustahkam birikishini hamda sirtning turli nuqsonlarida korrozion yemirilishlaming kam bo'lishini ta'minlaydi

Fosfatlar - suvli sovutgichlarni himoyalashda keng qo'llaniladigan ingibitorlardir. Na_2HPO_4 va Na_3PO_4 - xolida ishlatiladi. NaH_2PO_4 -kuchsiz ingibitor, chunki suvli eritmada u eriganda eritma pH ning qiymati kislatali tomonga siljiydi. Fosfatlar ta'sirida metall sirtida kam eruvchan - Fe_2O_3 va $\text{FePO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ tarkibli ximoya qavati xosil bo'ladi va korroziyalanishga asosiy to'siq vazifasini o'taydi. Juda tez korroziyalanayotgan metall sirtini ximoyalash uchun "tezlik bilan fosfatlash" usulidan foydalilanadi. Buning uchun 12% - li fosfat eritmasi 5 kun davomida doimiy aylanma xarakatda saklanadi. Eritma to'kiladi, sistema quritiladi va yana 2 soat davomida shu sikl takrorlanadi [21].

Samarali ingibitorlar sifatida polifosfatlar ($\text{P}_3\text{O}_{10}^{5-}$) va ($\text{P}_6\text{O}_{18}^{6-}$) lar ishlatiladi. Ular konsentratsiyalari 10 mg/l bo'lganda kuchli ingibitorlik xossasi namoyon qiladilar. Polifosatlarning bu xususiyati Ca -ionlari ishtirokida kuchayadi. Ca polifosfat = 0,5 da yuqori effekt kuzatiladi. Polifosfatlar ichida - geksametafosfat (GMF) keng tarqalgan ingibitordir, suvda yaxshi eruvchan kompleks birikma xosil bo'lishi bilan izoxlanadi. Ca -yuqori konsentratsiyada bo'lsa $\text{Ca}(\text{P}_3\text{O}_{10})_2$ cho'kmasi hosil bo'ladi, ximoya pardasi metall

sirtiga o'tirib qoladi va korroziyani sekinlatadi. Tarkibida 2500 mg/l NaCl, +2 100 mg GMF, 60 mg/l Ca saqlagan suvli eritmada po'lat sirtida



himoya qavati yuzaga keladi. Polifosfatlar ishlatilganda suvli muhitning tarkibiga, temperaturasi va oqim tezligiga e'tibor berish lozim. Oddiy kam harakatchan xolatda 25 - 200 mg/l polifasfat, 0,5 - 2m/s tezlik oqimida 20 - 25 mg/l GMF samarali ingibitorlik xossasini namoyon qiladi [22].

Xromatlash - barcha rangli va qora metallarni himoyalashda kuchli vosita sifatida ko'llaniladi. Intibitorlik xossasi $1,6 \cdot 10^{-6}$ mol/l dan boshlanadi, (kaliy bixromat). Agar ishlatiladigan metall "suyuqlik" "havo" chegarasiga (vaterliniya) ga ega bo'lsa, 2-3 g/l konsentratsiyali eritmasi ishlatiladi, ammo ingibitor sarflanib bo'lganda korroziya yana vaterliniyada boshlanadi. Shuning uchun bu xromatlir korrozion muhitga vaqt - vaqt bilan ko'shib turilishi kerak. Cr₂O₇ -bixromat ionlarining himoyalash kuchi CrO₄ - xromatlarga nisbatan uch marta kuchli. Na₂SO₄ - erigan (0,1 mol/l) suvli muhitda xromatlar va bixromatning intibitorlik kuchli. Issiqlik tashuvchi moslamalarda suvda 10^{-4} - 10^3 mol/l kaliy bixromat bo'lganda ular ishonchli xromatli himoyaga ega bo'ladilar. Xromatlarning ingibitorlik xossasi eritmadi Cl⁻ -ionlari miqdoriga bogliq. Eritmada xlor ionlari bo'lganda bixromat ionlari miqdori odatdagidan 2 - 3 marta ko'p bo'lishi talab etiladi. Temperatura ortishi bilan (bixromat - ionlari miqdori yetarli bo'lganda) xromatlarning korroziyaga qarshi himoya kuchi ortadi va xromatlardan yuqori temperaturada ham ingibitorlar sifatida foydalanilsa bo'ladi. Lekin, past temperaturalardagiga nisbatan ($50^\circ C$ da = 10^{-4} mol/l; $400^\circ C$ da - $2 \cdot 10^4$; $600^\circ C$ da - $5 \cdot 10^{-4}$ mol/l ko'proq miqdorda xromatlar ishlatilishi kerak. Keyingi yillarda samarali ingibitorlar sifatida organik xromatlar:

- siklogeksilaminxromati;
- guanidinxromati;
- metilaminxromati;
- izopropilamin-2 xromatlari ishlatilayapti.


Eritmada SO₃ va Ce - ionlari mavjud bo'lganda xromatlarning eritmadi konsentratsiyasi odatdagidan ancha yuqori bo'lishi kerak. Turli metallar o'zaro kontaktda bo'lganda

xromatlarning ingibitorlik effekti kam bo'ladi. Bunday hollarda ularning konsentratsiyasini oshirish zarur. Distillangan suv yuqori temperaturada po'latni mahalliy korroziyanishga olib keladi. Bu hollarda korroziyani sekinlatish uchun issiklik tashuvchi jixozlarda quyidagi tarkibli: 1000mg/l Na₂Cr₂O₇ + 400mg/l Na₂CO₃ yoki 500 mg/l Na₂Cr₂O₇ + 500mg/l NaNO₂ + 500mg/l Na₂CO₃ aralashmali ingibitrlar ishlataladi [12].

2.3. Gumirirlangan qoplamlalar

Gumirirlangan mahsulotlar gumirirlanish deganda tabiy yoki sintetik kauchuk mahsulotlaridan metalni qoplash tushuniladi. Bu turdag'i mahsulotlar kimyo sanoati uskunalani korroziyadan, kavitasiyadan, eroziyada va boshqa tasirlardan himoyalashda keng miqyosida foydalaniladi. Gumirirlangan qoplamlalar mustahkamligi, agressiv muhitga chidamliligi, elastikligi, tebranish, gaz va suv o'tkazmasligi bilan kimyo sanoati asbob-uskunalarini himoyalash talablariga mos keladi. Gumirirlangan mahsulotlarga tabbiy va sintetik kauchukdan olingan, izopren, xloropren, butadien va boshqalarni kiritish mumkin. [23].

Gumirirlangan kauchukli qoplamlarning qalinligi 1,5 mm tashkil qiladi. Kichik hajmli mahsulotlarni gumirirlashda rezina aralashmasi va suyuq kauchukdan foydalaniladi. Bazi holatlarda gumirirlangan rastvorlar tunikali mahsulotlarning yuzasini qoplashda ishlataladi. Hom rezina aralashmasi kauchuk, oltingugurt yoki boshqa vulkanlangan modda-lardan iborat. Rezinali aralashmaning tehnologik tarkibini tabiiy kauchuk yaxshilaydi. Jumladan yuqori elastiklik, defarmatstiyaga chidamli, kagezion va adgezion xossalari yax-shi, kislata va ishqorlar ta'siriga chidamli. Shu bilan birga bunday vulkanizatlar, mineral yog'lar va organik erituvchilarga chidamsiz, ular tarkibidagi tabiiy kauchuk hisbatan qimmatbaho. Ko'p holatlarda mohsulotlarni gumirirlashda natriy - butadienli sintetik kauchukdan foydalaniladi (SKB). U butadienni polimerlash natijasida olinadi. Uning tuzilishi quyidagicha.



I

CH


II

CH₂

SBK ning vulkanlovchi agenti - oltingugurtdir. SKB li gumirirlangan mahsulotlarning kimyoviy chidamliligi tabiiy kauchukli gumirirlangan mahsulotlardan kamroq farq qiladi [23].

Butadien -stiroli kauchuk (BSK) - tortilganda yuqori chidamliligi, metal- ga yaxshi adgeziyalanishi va egiluvcanligi bilan farqlanadi. Ular kislota va ishqorlarga, spirtlar, ketonlar, efirlar ta'siriga chidamli, oziga yog'va moy, uglevodarodlarni qabul qiladi.

Izoprenli sentetik kauchuk (ISK) o'zining xossasi bilan tabiiylikga yaqin. U izoprenni polimerlab olinadi. Xloraprenli kauchuk (nairit) u xloroprenni polimerlab olinadi. Uning tuzilishi quyidagicha:




Malekula tarkibidagi xlor atomi nairitning kimyoviy mustahkamligini oshiradi. Nairitda xlor atomi metalarga yuqori adgeziyalanishini taminlaydi. Nairit metal oqsidlarida vulkanlanadi, asosan rux va magniy oksidlari aralashmasida. Vulkanlovchi agentlar uni yuqori mustahkamlashga, agressiv muhit va moylar, egiluvchan, eskirishga chidamli, tortilganda yuqori chidamlilikga ega, emirilishga chidamli. Nairitning kamchiliklari quyidagilardan iborat, past haroratga, ishqalanish va yong'inga chidamsiz, vulqanlashga beriluvchanligi uni ishlab chiqarishni qiyinlashtiradi [24].

Gumirirlash texnologiyasi kimyo sanoati asbob-uskunalarini gumirirlash jarayoni ikki yo'l bilan amalga oshirilishi mumkin: 1) Tunukalar yuzini qoplashda vulkanlanmagan rezinali aralashmalarni vulkanlash orqali; 2) Uskunlar yuzasiga yopishtirishda oldindan ishlab chiqarilgan kauchukli astarlar yoki g'iloflardan foydalilaniladi. Birinchi usul eng keng tarqalgan hisoblanadi. Gumirirlash jarayonining texnologik bosqichlari quyidagicha: yuzalarni himoyalashga tayyorlash; gumurlangan mahsulotlar tayyorlash; yuzalarni himoyalashda kleylar surtish va ularni tayyorlash; yuzalarni himoyalashda gumuirlangan mahsulotlarni qoplash; ularni issiqlik tasirida qayta ishlash. Gumirirlangan sirt yuza korroziyadan himoyalaydi, yog'lar yopishishidan saqlaydi [13].

Gumirirlashning kiyoviy, elektrokimyoviy mexanik usullari mavjud. To'g'ri

gumi-rirlangan sirt yuzalar, nsilliq va kulrang, qo'pol bo'lmasligiga ishonch hosil qilish kerak. Bunday yuzalarlarga kley surtilishi qoplamaning adgeziyasini oshiradi. Yuzalarni qoplashda kley surtish kerak keyin uch qavat qilib 8 soatdan kechiktirmay qoplash kerak. Kauchuk aralashmasining vulkanlanish kinetikasi kuyidagicha bo'ladi.



3-rasm. Kauchuk aralashmasining vulkanlanish kinetikasi. (q-t mustahkamlik chegarasi va xizmat qilish muddati).

Birinchi bosqichda (I) kauchuklar aralashmasi oquvchanligini yo'qotadi. Bu jarayon tez sodir bo'lishi mumkin "qattiqlashishi" (A) yoki sekin sodir bo'lishi mumkin (B). Ikkinchi bosqichda (II) kuchlanish ortadi lekin ko'proq qoldik defarmatsiya mavjud bo'ladi. Uchinchi bosqichda (III) kauchukning fizikaviy-mexanik xossalari optimal kombinatsiyalanishiga erishiladi. Masalan mustahkamlik chegarasi, qarshilik xususiyatlari va boshqalarda. To'rtinchi bosqichda (IV) ko'pgina kauchuklar uchun qo'shimcha modulning osishini kuzatish mumkin (C). Vulkanizatlar tabiiy va sintetik izoprenli kauchukning qoplash jarayonining samaradorligini oshiradi. Bazi holatlarda izoprenli tabiiy va sintetik kauchuklarni vulkanlovchilar, qayta vulkanlashda o'zaro bog'liqlik darajasini pasayishi va o'z kuchlarini nisbatan kisqartirishi mumkin. (D) Shuning uchun har kauchukli aralashma, o'zining vulkanlanish davomiyligi, temperaturasi va bosimi bilan harak-terlanadi. Bundan tashqari, metalni qoplashda qoplamaning qalinligi va og'irligini e'tiborga olish kerak. Birinchi bosqichda (I) mahsulotlarni qalin qilib qoplashda metalni yaxshi qizdirish kerak. Bu qoplamlarni qoplashda issiq havodan

foydalanan qoplamaning fizikaviy- maxanik va himoyaviy hususiyatlarini yaxshilaydi. Kleylar sifatida ishlatiladigan mahsulotlar qotorida 2572 (qizil) va 51-K-22 dan foydalaniladi. Kley 40.60 daqiqada quriydi o'zining yopishqoqligini 3.4 soat saqlaydi. Sovuq havoda 88-H markali kleydan foydalaniladi. Asosiy suyuq nairitli qoplamlalar ular past maleqlulali polixloroprenni destruksiyaga uchratib yuqori malekulali polixloropreng aylantirish orqali ishlab chiqariladi. Destruksiyalangan nairit organik erutuvchilarda yaxshi eriydi, yopishqoqligi past. Ularni qoplashda 65.70 % li eritmasi tayyorlanadi shpatlevkalash uchun yanada ko'roq erituvchi bilan suyultiriladi. Qoplamlarning adgeziyasi past, biroq ular tuproq qatlami uchun qo'laniladi. Bunday qoplamlalar ventilyatrlar, sulfat kislata vannalarini, armaturalarni, vakuum filtrlarni va boshqa kimyo sanoati uskunalarini himoya qilishda qo'laniladi [25].

Suyuq silaksanli kauchuk kremniyorganik palimerlar sinfiga kiradi. Ular xona temperaturasida kalayorganik birikmalar bilan vulkanlanadi, ularning yaxshi hususiyati issiqlikga chidamli, kamchiligi kislata va ishqor tasiriga chidamsiz. Ba'zi fizik- mexanik ximoyalovchi xossalari bo'yicha siLaksan butadienli kauchukqa yaqin. Ular xona temperaturasida kaliyorganik reagantlar yordamida vulkanlanadi, isiqlikga yaxshi chidamli, kamchilikgi shundaki kislata va ishqorlar ta'siriga chidamsiz [14].

2.4.Polimerlar asosidagi asosiy himoya qoplamlari

Lak va bo'yoq asosli qoplamlalar umumiy ma'lumotlar. Lak - bo'yoqli mahsulotlar bular suyuqlik yoki pastasimon tarkibi, yupqa qatlam hosil qilib qoplanadi ularning mustahkamligini adgezion kuchlar taminlaydi. Lak bo'yoqli qoplamlarning quyidagi turlari mavjud; metallarni korroziyadan himoyalovchi, metalmaslarni namlik va parchalanishdan saqlash ,maxsus sirt hususiyatlarini saqlash, (elektroizalyatsiya, teplaizolyatsiya,va boshqalar), mahsulotlarga bezak berish maqsadida qo'llaniladigan turlari mavjud. Bu qoplamlarning asosiy avzalligi quydagilar; nisbatan arzonroq, qoplash osonligi, suyuqlantirish oson, ishlab chiqarish samaradorligi yuqori, jozibador ko'rinish va yuqori himoyalish xassalarini nomoyon qiladi.

Kamchiligi; yuqori issiqlikga chidamsiz, ($170.200\text{ }^{\circ}\text{C}$) ,mexanik chidamliligi past, suvli muhitga qarshiligi kam.

Lak bo'yoqli qoplamlarning turlari .Lak bo'yoqli qoplamlalar asosan uch turga

ajratiladi; maslyaniy kraska, Lak va emallar.

Maslyanniy kraska - suspenziya, pigmentlarni maydalash, moylar va qatlam hosil qiluvchi moddalardan olinadi. Pigmentlar tegishli ranglar va qoplamaning himoyalovchi hususiyatlariga ta'sir qiladi. Bular rux oqsidi, qo'rgoshinli belila, oxra va boshqalarni o'z ichiga oladi. Osimlik yog'laridan olingan maslyanniy kraskalarini quritish jarayonini jadallashtirish maqsadida sikkativlar (kobalt, marganiz va xakoza oksidlar) qo'shiladi. Qoplamalarning chidamlilik va qarshilik kuchlarini oshirish maqsadida talk va kaolin qoshiladi. Maslyaniy kraska nam sharoitda metallarni korroziyadan yaxshi himoyalaydi [26].

Laklar - tabiiy yoki sintetik qatronli smolalarni erituvchilar yordamida eritib olinadi. Laklar qoplangandan keyin erituvchilar bug'lanadi va mustahkam qatlam hosil qiladi. Spirli va maslyaniy Laklar mavjud. Birinchisiga spirtda eritilgan smalolar, ikkinchisiga oliflar kiradi. Avzalligi qoplangan yuzalarning yorqin ko'rinishda, quritish jarayonining tezligida. Kamchiligi metallarga adgeziyasi past, qiriluvchanligidadir [15].

Emallar - Laklar aralashmasini organik erituvchilarda eritib, pigmentlar qo'shib tayyorlanadi. Ular Laklar kabi qaplomalarga yorqinlik beradi. Emallar Laklardan arzon turadi. Emallarning - maslyaniy emal (neft Laklari), gliftalli emallar va nitroemallar (nitrostellyulozali Laklar) kabi turlari mavjud. Nitroemallar tez qotuvchi mahsulotlardir, ular qoplangandan keyin bir necha daqiqadan keyin qattiq holatga o'tadi. Bugungi kunda sintetik emallar keng tarqagan, asosiy sentetik smalolar, elastikligi, qattiqligi, atmosfera havosiga barqarorligi, yuqori manzarali hususiyatlari bilan ajralib turadi.

Lak bo'yoqli qoplomalarni qoplash Lak bo'yoqli qoplomalarni qoplash jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat: uskunalarni qoplashga tayyorlash, qoplomalarni qoplash va quritish. Uskunalarni qoplashga toyyorlash; yuzalarni zang va iflosliklardan tozalash, gruntovka va shpaklevka surtish jarayonini o'z ichiga oladi. Yuzadagi suvli aralashmalarni tozalashda sentetik yuvuvchi vositalar va erituvchilardan foydalaniladi [27].

Lak-bo'yoqli qatlamlarning mustahkamligini oshirish maqsadida, yuzalarga gruntovka qatlami, temir okid, ruxli krona, rux changgi (protector) va boshqa mahsulotlar qo'laniladi. Gruntovkalangan yuzalarni tekislash uchun shpaklevka uriladi. Eng ko'p

ishlatiladigan shpaklevkalarning tarkibi, bor, olif, va yog'li kleylarni o'z ishiga oladi. Shpaklevkaning quritish jarayonini tezlatish uchun yuzalarga ko'piktosh (pemzoy) uriladi va shukurka qilinadi.

Odatda Lak-bo'yoqli qoplamlar yupqa qatlam qilib (1...3) uriladi, birinchi qatlam qurigandan keyin yana boshqa qatlam uriladi keyin to'liq quritiladi.

Termoplast va reaktaplast asosidagi himoyalovchi qoplamlar.

Korroziyaga qarshi ximoya vositasi sifatida termoplastlar termoplastlar asosida kimyoviy chidamliligi yuqori materiallar polivinilxlorid, polietilen, ftoroplastlar pentoplastlar, poliprapilen, poliizobutilenlar qo'laniladi.

Polivinilxlorid asosidagi qoplamlar, xom-ashyo arzonligi, kimyoviy tarkibini ishlab chiqarishva qo'llash osonligi, fizik -mexanik xususiyatlarining ko'rsatgichlari yuqoriligi sababli qorroziyaga qarshi ximoyalovchi qoplama sifatida keng ko'lamma ishlatiladi. Sanoatda qattiq PVX -vinilplast va yumshoq plastikat ishlab chiqariladi. Vinilplast kimyoviy jihatdan chidamli bo'lsa ham ximoya qatlami sifatida kam qo'llaniladi, uning kamchiligi issiq va soviqqa chidamsizlidigadir [9].

Plastikat keng ko'lamma qo'llaniladi buning sababi shundaki uni ma'lum shaklga keltirish osonligi va engil payvandlanishidadir. Plastifikatorlar (odatda ftalatlar) plastikatning elastikligini va sovuqqa chidamliligin oshiradi va u suvg'a, kislota va ishqoriy eritmalariga ham chidamlidir .plastifikatorlar adgeziyani kamaytirishi sababli plastikatni qoplashdan oldin metal sirtiga gruntovka sifatida fenol va epoksid smala asosidagi elim uriladi. Plastikatlar temir temir-beton, qurilish konstruksiyalarida va inshoatlar ximoyasida keng qo'laniladi [9]. [].

Polietilen (PE) asosidagi qoplamlar 60°C gacha bo'lgan haroratda suv va agressiv muhitlarga chidamliligi bilan ajralib turadi. Xona haroratida polietilen erituvchilarda erimaydi ammo 70°C dan harorat oshgach u ayrim uglevodorotlar va ular asosidagi mahsulotlarda eriydi. HCl , $\text{HF}, \text{H}_3\text{PO}_4$, H_2SO_4 eritmasi, HNO_3 eritmasi,kabi oqsidlanmaydigan kislotalar PE ga ta'sir qilmaydi ammo 60°C dan harorat oshgach H_2SO_4 va HNO_3 PE qatlamenti parchalaydi . PE ning kamchiliklari quyosh nuri ta'sirida himoya muddati qisqarishi , yoriqlar hosil bo'lishi ,past chidamliligi, va qo'llash harorati. Yuza qatlamlarini himoyalashda PEND lar keng tarqalgan bo'lib kimyo sanoati, qurilish

qonstruksiyasalarida, quvurlar, nososlar, vintilyator, armaturalar himoyasida kegn qo'llaniladi. Agressiv muhitlar uchun qollaniladigan hajmlarda PE dan tayyorlangan plastinalar qo'llaniladi ,qurilishda izolyatsiya sifatida foydalaniladi. PE dan tayyorlangan yashiqlar, tasmalar yordamida quvurlar korroziyadan himoyalanadi [16].

Ftoroplastlar asosidagi qoplamlar bunga politetroftoretilen (PTFE) F-kiradi kimyoviy chidamliligi boyicha barcha polimer mahsulotlardan yuqori hisoblanadi. (PTRE) qoplamlariga faqatgina ishqoriy metal eritmalari va ftor ta'sir etadi. Xona haroratida unga erituvchilar ta'sir etmaydi. Parchalanish haroratigacha (415°C) uoquvchan qovushqoq holatga tushmaydi shu sababli unga ishlov berishda mahsus texnologiyalardan foydalanadi. Adgeziyasi pastligi qoplash jarayonini qiyinlashtiradi. PTFE ning yuqori modifikatsiyasi F-4D yuza qatlamiga suvli dispersiyalar yordamida; F-40 va F- 4 M kukun holatida ishlatish mumkin. F-4 qoplamlari kimyoviy uskunalarini agressiv muhitlarda, harorat 200°C va undan yuqori haroratlarda ximoya sifatida qo'laniladi; kamchiliklari mehanik chidamsizligi,va yuqori narxi. Ftoroplastlardan politriforxloretilen (PTFXE) belgilashimiz mumkin, uning kimyoviy chidamliligi F-4 ga yaqin bo'lib umustahkamroq va sovuqqa chidamliligi bilan ajralib turadi. Uning asosidagi qoplamlar suspenziya va kukun ko'rinishida uriradi [19].

Polivinilftorid (PVX) kimyoviy chidamliligi kam bo'sa ham metal, yog'och, boshqa quririlish materialrariga yaxshi adgiziyasi bilan ajralib turadi. Polivinilidenftorit (PVDF) barcha ftoroplastlarga nisbatan yuqori fizik-mexahik husu- siyatga ega bo'lib quyish osonligi va yuqori chidamliligi bilan ajralib turadi .

Pentaplast asosidagi qoplamlar kimyoviy chadamliligi bo'yicha ftoroplastlarga yaqinlashadi. Erituvchilarning ko'pchiligiga chidamliligi, kuchli va kuchsiz ishqorlarga, kuchsiz va ayrim kislatalarga chidamliligi bilan ajralib turadi. Faqatgina azot va sul'fat kislataga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Agressiv mexanik hususiyatlari PTFXE dan yuqori. Bu polimerning texnologik ko'satgichlari juda yuqori bo'lib unga bosim ostida quyish bilan ishlov beriladi. [11].

Reaktaplastlar asosidagi qoplamlar reaktaplastlar asosidagi qoplamlarini katalizatorlar, ingibitorlar va qotiruvchilar qo'shilgan holda, himoya qilinishi zarur bo'lgan yuzaga suspenziya, pasta, mastika va kukun holda uriladi, shundan keyin tafsiya

qilinayotgan rejim asosida qoplama qotiriladi. Urilayotgan kompazitsiya tarkibida smola qotiruvchilar (yuqori va past haroratlarda), plastifikatorlar (elastiklikni oshirish maqsadida), to'ldiruvchilar(qattiqligini oshirish va cho'kuvchanligini kamaytirish) va erituvchilar (boslang'ich kovushqoqlikni kamaytirish maqsadida) qo'shiladi. Ulardan asosan tunuka materiallarni qoplashda foydalaniladi [17].

Epoksid smolalar asosidagi qoplamlalar qotish jarayonida cho'kish ko'satgichi minimal bo'lib, qoldiq mahsulotlar ajralmaydi. Bunday qoplamlalar yuqori adgiziya, fizik-mekanik ko'rsatgichlarining yuqoriligi va kislata va ishkorlarga chidamliligi bilan ajralib turadi. Kamchiligi uning toksikalologik hususiyati yuqori (diamin va poliaminlar sababli). Bu qoplamlalar kata o'lchamli kimyoviy uskunalar bino va inshoatlar va transport vositalarini himoya qilishda qo'llaniladi.

Epoksidli Lak-bo'yoq materiallari, boshqa izolyasiya qiluvchi materiallarga nisbatan quvur yuzasiga surkash texnologiyasi oson va qimmatbaho xossaga ega. Shunga ko'ra, u korroziyadan himoya qilishda qoplama sifatida ko'p ishlatiladi. Uning himoya qilish ko'rsatkichi tarkibiga qo'shiladigan qotiruvchi moddalarning turiga va quritish haroratiga bog'liq. Qotiruvchi moddalar sifatida alifatik aminlar (polietilen poliamin va geksametilen - diamin) ishlatiladi. Bularidan tashqari Lak - buyoq materiallarining xossalari qo'shiladigan pigmentlar, to'ldiruvchilar, plastifikatorlar va modifikatorlarga ham bog'liq bo'ladi. Epoksid smolalarining erituvchisi sifatida: erituvchi, inert komponenti va aromatik erituvchidan tashkil topgan aralashma ishlatiladi. Masalan, atseton (3-qism), ksilol (4-qism) va etilsellozolva (3 - qism). Surkalgan epoksidli Lak-buyoq qoplamasini quritish, 18 - 22 °C da 24 soat davomida amalga oshiriladi. Surkalgan epoksid smola qoplamasining yuqori haroratda qurishi, uning yopishqoqligini sodir etadi. Bunday qoplama ega bo'lgan quvurlarni harorati 60 °C gacha bo'lgan va namligi yuqori bo'limgan (quruq) tuproq sharoitida ishlatish mumkin. Masalan, PEP - 534 markali epoksid qoplamasini nam yer sharoitidagi ishlash muddati 10 - 15 yilni tashkil qilsa, quruq tuproq sharoitida esa, uning ishlash muddati, o'rtacha 30 yilni tashkil qiladi [5].

Fenolfarmal'degidli smolalar asosidagi qoplamlalar qo'llanilganda rezol' va novolachenliy turudagi smalardan foydalaniladi. Rezol' smolari kizdirish natijasida qoliplash, novolochniy turidagilarga mahsus qotirgichlar talab qilinadi (formal'degid va

geksametilendiamin). Qotgan smolalar erimaydi va eruvchilarga chidamli, yuqori haroratga chidamli $250\ldots280$ °C gacha 280 °C dan yuqori haroratda destruksiyaga uchraydi. Kislatalarga chidamli, ba’zi ishqorlar va fenollarda eriydi.

Poliefir smolalar antikorozzion ximoya sifatida qo’llaniladi. Tarkibi jihatdan stioldagi to’yinmagan poliefirlar, dikorbonkislatalar va ko’p atomli spirlareritmalaridan tashkil topgan. Qotish jarayoni qizdiganda yoki qotirgichlar yordamida amalga oshiriladi. Mineral va organik kislatalarga, neft mahsulotlariga, erituvchilarga chidamliligfi bilan ajralib turadi ishkoriy muhitda gidroliz jarayoniga uchraydi. Bularasosida har hil antikorrozion mastikalar tayyorlanadi [23].

Furanli smolalar furan va uni hosil qiluvchi birikmalaridan olinadi. Korsatgichlari; kislota va ishkorlarga yuqori chidamli xarorat $300\ldots500$ °C gacha termo-chidamligi, metal, beton, keramika va boshqa mareriallarga yaxshi adgiziyasi bilan ajralib turadi.

Polimer kukunlar bilan qoplamlarni qoplash asosiy usullari. Polimer kukunlar urilayotgan yuzada erib nozik qatlam hosil qiladi. Ishlov berish usuliga va qatlamlar soniga ko’ra himoyaviy qatlamlar qalinligi 0,2 dan 1,5 mm gacha boladi, yani kukunlarni faqat nozik qatlamda ishlov bermasdan qalin qatlam hosil qilsa ham boladi. Kukunga ishlov berib uni erish haroratigacha qizdirish davrida termooqsidlanish destruksiyasi sodir bo’ladi shu sababli ishlov berishdan oldin kukun (polimer) termostabil holatda bo’lishi kerak. Shu sababli polietilen va etilen, propilrn polimerlariga termostablizator vazifasini deafen, bisalkofen va boshqa qo’shichlar 0,15dan 0,5 % (og’rlik miqdorida) qo’shiladi. Yaxshi natijalar 0,15 dan 1 % gacha (og’rlik miqdorida) oltingugurt qo’shilishida olingan. Stabillashmagan PEND kimyoviy hususiyatlarini eritmani 30 sek davomida mashina yog’i bilan ishlov berib keyinchalik termik 200 °C haroratda 5 minut davomida ishlov bergen holda olish mumkin [18].

Propilen kukunlari uchun termostabilizator vazifasini oltingugurt va uning birikmalari, neazon -D (1,35 %) bajaradi. Pentaplast stabillangan holda ishlab chiqariladi. Nozik qatlamlı ximoyaning xususiyatlari va davomiyligi, ximoya qilinayotgan yuzaning qatlamiga nisbatan adgeziyaga bog’liq bo’ladi. Shu sababli ishlov berilayotgan yuza po’lot va boshqa mohsulotlar yaxshilab tozalanib fosfatlanadi. Ishlov berilgan yuzalarda polipropilen va pentaplastlarning (urilgan) adgezion mustahkamligi 10 va 15,7

MPa, fosfatlangan yuzada esa 19,7 va 21,5 MPa ni tashkil etadi. Alyumiyniy va magniy yuzalarga ishlov berilganda oksidlash tavsiya etiladi [15].

Ftoropolimerlar kukunlari bilan ishlov berilganda yuzani sulfoxlorlash tafsiya etiladi. Plolimer eritmalari bilan ishlov berishda ularning adgezion mustahkamligi chegaraviy qatlamlarda oksidlanish sodir bo'lganda kuchayadi. Bu jarayon ishlov berilayotgan qatlamning qalinligi va haroratiga bog'liq bo'ladi [12].


Adgeziyaning maksimal ko'satgichi qalinligi 1200 dan 2000 mkm taminlanadi. Temperaturaning kata ahamiyati bor, ko'chilik metallarning chegaraviy qatlamidagi termoooksidlanish jarayoni katalizator vazifasini bajaradi va adgezion mustahkamlikni taminlaydi. Shu sababli po'lot yuzalarni elektrolitik ishlov berish tafsiya qilinadi. Ayrim qoplamlarni qoplashda mahsus gruntofkalar uriladi. Misol uchun kompazitsion PVX lar fasfotlangan yuzaga yki mahsus gruntovka ustiga uriladi (suyuq fenolli kauchuk K4-01-89 yoki P-VYa-0111). Ayrim polimerlardan; poliprapren, pentoplast va ayrim ftoropolimerlardan sifatli qoplama olishda ahamiyatli shartlardan biri sovtish rejmini saqlash hisoblanadi. [28].

Qoplamlarning adgezion mustahkamligi va kimyoviy hususiyatlari to'ldirchichlar qo'shilganda oshadi chunki ular ichki kuchlanishlarni yo'qotadi. Misol uchun dengiz suvi hom neft uzatiladigan quvurlarni qoplashda PEND qoplamlariga 65 % kukun sifan rux qo'shiladi va buning oqibatida adgezion mustahkamligi oshadi va ichki kuchlanishlar 4-6 barobar kamayadi. Bir necha seqund davomida zarrachalar 130 °C haroratgacha (va undan yuqori) qizdiriladi va eriydi. Shu holatda zarrachalar ilgaridan qizdirilgan yuzada qoplama hosil qiladi va yana ishlov beriladi. Bu usulda ishlov berilganda ishlayotgan operatorindidual himoya vositasi bilan taminlanganligi, vintilyatsiya va zararlangan havoni tortib olish sistemasi bo'lishi kerak. Bu usulning kamchiligi polimerlarni kuchli termoooksil destruksiyasidir. [29].

Girdobli qoplash usuli bu usulda qoplashda qoplanayotgan buyum (detal) polimer kukunli idishga tushiriladi va pastdan havo yoki gaz oqimi yuboriladi. Isitilgan detal yuzasida polimer kukunlar yumshaydi va detal yuziga yopishib qoplama hosil qiladi. Bunday qoplamlar bilan uskunalarni qoplash jarayoni juda oddiy bo'lib, buni har qanday korxonada amalga oshirish mumkin. Uskunalarni qoplashda girdobli uskunadan va

pastdan kiritilayotgan reagentlar havo va siqilgan azotdan , detallarni qizdirishda pechlardan foydalaniladi.

Girdobli qoplash uskunasi silindrsimon yoki to'rtburchakli idishdan iborat. Idishning pastki qismida gaz o'tkazmaydigan va kukun tushmaydigan to'siq mavjud. Peregorodkalarni shisha tolali, filrlash keramikasi va boshqa g'avakli mahsulotlardan ishlab chiqarish mumkin. Peregorodkaning ustidan kukun sepiladi pastgi qismidan 22 0,05-0,6 mPa gaz (havo) 50 m/soat sarf bilan har 1m uzatiladi. Bu usul kata bo'limgan murakkab mahsulotlarni himoyalashda qo'llaniladi. Girdobli qoplash uskunasi silindrsimon yoki to'rtburchakli idishdan iborat. Idishning pastki qismida gaz o'tkaz - maydigan va kukun tushmaydigan to'siq mavjud. Peregorodkalarni shisha tolali, filrlash keramikasi va boshqa g'avakli mahsulotlardan ishlab chiqarish mumkin. Peregorodkaning ustidan kukun sepiladi pastgi qismidan 22 0,05-0,6 mPa gaz (havo) 50 m /soat sarf bilan har 1m uzatiladi. Bu usul kata bo'limgan murakkab mahsulotlarni himoyalashda qo'llaniladi [29].



**2-rasm. Girdobli qoplash usulining sxematik ko'rinishi. 1-polimer kukunlari
2-qoplangan buyum,3-qoplangan kukun, 4 -qoplash uskunasining korpusi, 5- g'ovak
to'siq**

Girdobli tebranish usulida sepish bu usulning girdoblidan farqi shundaki havo (qizdirilgan) yoki gaz ta'sirida erib tushayotgan kukunga bir vaqtning o'zida vibratstiya ta'sir qiladi. Bundan tashqari sepishda kukunni fraksiyalarga (qo'shimchalar stabilizator, pigment) zarrachlar o'lchami boyicha ajratishga hojat qolmaydi. Bu usulda

hosil bo'lgan qoplamlar boshqa usullarga nisbatan tekis va qalin bo'ladi. Oddiy taminlash bo'chkasidan undan kukun, siqilgan havo yordamida shlan orqali changlatish uskunasiga uzatiladi va undan mahsulot qizdirish pechlariga o'tkaziladi [29].

Changlatish jarayoni osongina aftamatlashtiriladi va mexanizatsiyalashtiriladi, qoplamani tashqi va ichki yuzalarga sepish imkoniyati bor. UNIIXim Mash, tomonidan ishlab chiqilgan pech. Bu to'la mexanizatsiyalangan uskuna bo'lib hajmli kimyoviy uskunarga va kalonna tipidagi apparatlarni ximoya qoplamarini sepishga mo'jjallangan. Uskuna ichida apparat aylana bo'yicha 0,5 .1,0 m/s tezlikda xarakat qilib, puflash uskunasi ishlov berilayotgan uskunaga qarama -qarshi holda aylanib, ikki, uch qator qoplanadi. Havo kukun aralashmasini uzatish aftomatlashgan bo'lib sferik kublarni qoplashda yo'qotishlarni kamaytiradi. Har bir qatlam (kukun)sepilgach bu qatlam glanes paydo bolguncha eritiladi.

Elektroforetik changlatish ululi yuqori kuchlanishli elektr maydon qo'llashga asoslangan, buning natijasida zazemleniya qilingan detal va mahsus elektrod setka orasida zaryad hosil bo'ladi. Polimer zarrachalari muvozanat holatida bo'lib (havo yoki gaz oqimlari) elektr setkada zaryadlanadi qachonki elektrod setka detal orasida elektr maydon hosil bo'lganda. Kukunning zaryadlangan zarrachalari detal'ning sovuq yuzasida tekis o'tiradi va ko'p vaqt orasida saqlanib turadi va bu kukunni eritishga imkon beradi.

Issiq nur changlatish usuli havo yordamida katta quvvatli issiq nur oqimiga uzatiladi ,buning natijasida polimer zarrachalar eriydi va katta tezlikda himoya qilinishi zarur bolgan yuzaga intiladi va himoya qatlami hosil qiladi. Bu usul murakkab bo'lmasdan yuqori unumdorlikga ega, kamchiligi sifatida reflektorlarni sovitish zarurligi. Ammo boshqa uskunalarga qaraganda kukun sarfi 25.30 % gacha 3,5 -4 marotabagacha kamayadi. Bundan tashqari bu usulda o'lchami katta bo'lgan uskuna va detallarni qizdirgan holda ishlov berish imkonini beradi [17-18].

Elektrolitik changlatish usuki bu juda keng qo'llaniladigan usul bo'lib, zazimleniya qilingan detal (uskuna) va mahsus elektrodga yuqori kuchlanishdagi salbiy tok beriladi va natijada elektrostatik maydon hosil bo'ladi.Polimer zarrachalari moydonga kirib zaryadlanadi va shu ta'sir natijasida mahsulot yuzasiga o'tiradi keying bosqich bu qatlamni eritish jarayoni bo'lib bu maqsadda kvars lampalar parabolik fokus

konstruktorlardan foydalaniladi. Bu usulning mukammalligi, himoyalanayotgan uskunaning bo'rtib turganjoylari, flaneslar, payvondlanish joylarida sifatli qoplama hosil qiladi qo'llanilayotgan materialning qo'llanilishi 90 % gacha bo'ladi, bu qimmat narhdagi fitorpolimerlarni qoplashda iqtisodiy samara beradi. Elektr quvvat sifatida tok kuchi 10 mA gacha va kuchlanish 80... 150 kv gacha bo'lgan generatrlardan foydalanish mumkin bu havfizlikni taminlaydi. Qoplamlarni qo'lda va (pistalet purkagich) yoki to'liq mehanizatsiyalangan yoki avtomatlashtirilgan uskunalarda olib boorish mumkin.

O'z-o'zidan sepish usuli bu usul hajmi 5 m gacha bo'lgan uskuna (hajmlar)zarur bo'lgan haroratgacha qizdirib ichiga polimer solinadi va monipulyasiya boshlanadi natijada hajm ichida qoplama hosil bo'ladi kukun qoldiqlari jarayon tugagach to'kilib tashlanadi. Bunday usul polietilen va epoksid cmlolalar kukuni qo'llanilganda yaxshi samara beradi, kukunni chiqarib tashlanishda flaneslar ham qoplanadi. Polimerlarni to'liq eritish pechda amalga oshiriladi. Hamma jaroyonlarning dovomiyligi ekspriment yordamida aniqlanadi.

Markazdan qochma changlatish bu jarayonni olib borilishi markazdan qochma jarayonni va suyuq kompozitsiyalarni markazdan qochma qoplashga o'xshaydi. Asosan quvurlarni ichki yuzasi, obeychekalar va boshqamarlazda aylanuvchi detallarga mo'jjallangan. Kukun qizdirilgan va 300 ay/min da aylanayotgan detalga sepiladi. Rejim tanlangan polimerga hos holda, jarayon ikki daqiqa davom etadi va keyinchalik termoishlov qilinadi. Bu uskuna sifatida tokor dastgohi qo'llanilishi mumkin faqat elektr qizdirish uskunasi bilan taminlanishi zarur. Bu usul yordamida faqatgina termoplast kukunlaridan foydalaniladi reaktoplastlardan ham foydalanish mumkin [31].

Plazmali changlatish usuli bu usulda PTFE va boshqa polimer qoplamlarni himoya qilish maqsadida qoplash mumkin. Belorussiyada harorati $3500.8000^{\circ}\text{C}$ ionizatsiyalangan inert gazlar (argon,geliy, geliy va azot aralashmasi) plazmasida polimerlarni eritish va nozik qatlamda qomlash usuli ishlab chiqarilgan Plazma oqimi aylanishi sababli polimer zarrachalar harorati past bolgan joyida yig'iladi va PTFE qalinligi 2,5 mkm gacha bo'ladi. Bunday plazmali qoplash usuli har xil tabiyatli metal, polimer, keramika kukunlarini katta gabaritli uskuna va detallarni qoplashni imkonini beradi .

Qoplamlarni sifat ko'satgichlari qoplamlarning asosiy ko'rsatgichlari qalinligi va tekisligi (silliqligi). Bu ko'rsatgichlari elektromagnit qalinlik o'lchagich (EMT-2, ITP-1) elektr uskunasi defektoskoplar ED-4, ED-5, BIVID-3, kuchlanish 4.6 kV da 1mm qalinligi uchun va boshqa salbiy tasir qilmaydigan uskunalarda tekshiradilar.

Polietilen, pentaplast, poliprapilen, etilen va propilen aralashmalari polivinilxlorid, qoplamlardagi kichik defektlarga quyidagicha ishlov beriladi. Defekt joylari metalgacha tozalanadi va zachekaniya qilinadi. Material ustki qismidan gaz garelkasi yordamida qizdiriladi (polimer erish haroratigacha) defect joyiga kukun sepilib trombovkalananiladi va tashqi tarafdan qizdirilib eritiladi [32].

Qoplash usulini tanlash Ko'pchilik qoplamlarni yuqoridagi tanish usulardan foydalanim olish mumkin termoooksidlanish destruksiyasiga chidamsiz materiallarda gaz-olvli usuldan foydalinish tavsiya etilmaydi. Tetroftoretilen va etilen aralashmasi F-40 DP va shu kabi qoplamlarda elektrostatik va girdobli usullardan foydalilanadi. Ftorplast F-50 ni qoplashda elektrostatik changlatish usuli tavsiya etiladi. Ftorplast -4 ni qoplashda plazmali changlatish usulidan foydalilanadi Bundan tashqari kriogen usuli ham mavjud, bu usulning texnologiyasiga ko'ra nozik dispers PTFE kukuni zarrachalarining o'lchami 1 mkm gacha bo'ladi bu kukun -73,5 °C haroratgacha sovitilib mahsulotning metal yuzasiga ishqalaniladi va mikroyoriqlarni to'ldiradi. 370 °C gacha qizdiriladi, natijada kukun eriydi va kengayadi. Natijada mahsulot yuzasida mexanik mustahkam qoplama hosil bo'ladi [30].

2.5.Bitumli qoplamlar

Bitum bo'yoqlarida pylonka xosil qiluvchi moddalar sifatida tarkibida bitum moddalar mavjud. Bitum tushunchasi ISH 5594 standartida keltirilgan. Bitum neft mahsulotlari ishlov berilganda olinadigan qora rangdagi kam uchuvchan organik modda bo'lib, havo harorati o'zgarishi bilan qovushqoqlik va bo'kiluvchan hususiyatlari o'zgaradi. Bitumi hususiyatlarini inobatga olib uni kolloid tuzimiga kiritish mumkin chunki bundagi dispers foza yog'larni yuqori qaynash fozasida teng taqsimlangan holda joylashtirilgan [7].

Bitumlar issiqlikga, atmosfera ta'siri va suvga chidamli, suv shimuvchanligi juda kam, toksik moddalar ajratmaydi va uglevodarod birikmalarida eruvchan. Bitum bo'yoqlar tayyorlashda uning yuzaga urilishiga qarab, fizik quritish usulida yuqori

haydash yo'li bilan olingen bitum qo'llaniladi bu oksidlangan bitum yoki yuqori vakuumli bitum (qattiq bitum). Suv asosidagi bitum bo'yoqlari va qalin qatlamlı (bitum emmulsiyalar) o'rta darajali haydash yo'li bilan olingen bitumdan foydalaniladi. Oksidlangan bitumlar parchalanish natijasida (0°C) yani bu haroratda u sinuvchan hususiyatga ega, yumshash harorati chegarasi juda keng bo'ladi. Plastik bitumning harorat chegarasi $90\ldots130^{\circ}\text{C}$ haroratgacha bo'ladi va bu GOST 520112 uzuk va shar usulida aniqlanadi. YUqori haydash yo'li bilan olingen bitumlar plastikligi chegarasi $60\ldots70^{\circ}\text{C}$ gacha bo'ladi [11-13].

Yuqori vakuum bitumlarining oksidlanishi bitumlarga nisbatan plastik chegarasi yuqori hisoblanadi. Qovushqoqlik va qattiq ko'rsatgichlari kerakli bo'yoqlarni olishda distillangan va yuqori vakuumlarga erituvchilar kam miqdorda qo'llaniladi bu atrof muhitga ta'sirini kamaytiradi. Bunday bitum eritmalarining stabilligi juda ko'p vaqt maboyinida saqlanadi ammo oksidlangan bitumlar vaqt o'tishi bilan quyuqlashadi (gelga aylanadi).

Distillangan va yuqori vakuum bitumlari osongina g'avak moddalarga o'tadi, quritilgach ular xar hil turdag'i yuzalarga qattiq yopishadi, atmosfera ta'siriga yuqori chidamli, kam suv shimuvchanligi va ultrobinafsha nurlar ta'siriga chidamliligi, oksidlanish bitumlariga nisbatan ko'p vaqt maboyinida yuqori chidamliligini ta'minlaydi. Bitum eritmalarini tayyorlashga $130\ldots200^{\circ}\text{C}$ haroratda qaynaydigan neft fraksiyalari va aromatik uglevodarodlar to'g'ri keladi. Uayt-spirit va benznlarga xidi kamligi va atrof muhitga salbiy ta'siri kamligi sababli ko'proq urg'u beriladi. Xlorlangan uglevodarotlar amalda qo'llanilmaganligi sababli yuqori toksikligi kuchi kam [17].

Suv asosidagi bitumlar o'zidan anion, kation va ionlanmagan emulsiyalar deb qabul qilinadi. Bunday bitumlar Lak bo'yoq sanoatida asosan emulgatorlar va stobilizatrlar sifatida qo'llaniladi. To'ldirgichlarni qo'llash bitum bo'yoqlarini ko'pgina hususiyatlarini yaxshilaydi bularga stabilligi, mehanik hususiyatlari, atmosfera ta'siriga chidamliligini oshishi kimyoviy chidamliligi va antikorrozion xussusiyatlarini yaxshilashdir.

Toldiruvchi sifatida: slanes, bor, ta'lk, slyuda (to'ldirgichlar turi va kerakli xususiyatlari asosan 25-45 % og'irlikga nisbatan qollaniladi) to'ldirgichlar qo'llanilganda pigmentlar cho'kishini oldini oladigan moddalar qo'shilishi shart. Ultrodispers kukun

qo'shilishi doyimiy atmosfera ta'siriga chidamlilagini oshiradi. Bitum bo'yoqlarni qora rangliliqi tufayli ularga boshqa rang berish chegaralangan (bu maqsadda temir oksidi va alyumiyniy kukunidan foydalanadi) [27].

S. N. Jurkov tasavvuricha, polimerlarning shishalanishi, quyi molekulali qoplama hosil qiluvchilarda bo'lganidek, zanjir zvenolarining o'zaro ta'sir energiyasi va issiqlik harakati nisbati bilan aniqlanadi. Zvenolar issiqlik harakati molekulaning zanjir uzunligi o'sgani va harorati kamayishi sayin keskin kamayadi va molekulyar massa yoki qoplama harorati ma'lum qiymatida ichki va molekulalararo o'zaro ta'sirni engishga etarli bo'lmaydi. Bu makromolekulalar zvenolarining issiqlik harakati intensivligi kamayishiga, zanjirlar qattiqligini oshishiga va natijada material qovushqoqligi, qattiqligi va mustahkamligi o'sishiga olib keladi [17].

Oligomer qoplama hosil qiluvchilarning qotishi sababi, ularning zanjiridagi polimerinalogik reaksiyalar ham bo'lishi mumkin, masalan, oksidlanish, sulfatlanish va boshqalar. Bunda qutblangan funksional guruuhlar to'planib qoladi va natijada makromolekula qo'zg'aluvchanligi pasayib, polimerning shishalanish harorati ortadi.

Polimerlarda shishalanish solishtirma hajmning (ozod hajm minimal miqdoriga yaqinlashgan) sakrab o'zgarishi va relaksatsion jarayonlarning keskin kamayishi bilan boradi. Shu bilan bir vaqtida moddalarning qattiq holatiga xos bo'lgan struktura (asosan muvozanatda bo'limgan) shakllanishi yuzaga keladi. Bitumsimon komponentli materiallarlar olish ustida ilmiy ishlar olib borgan olimlar Korneychuk G.K., Stiblo G.K., Krilov A.A. neft bitumlariga quyidagi turli komponentlar qo'shib yangi tur kompozitsiyalar olganlar. Bunda (mas.%): bitum 80,00 - 92,00, yarim kokslangan ko'mir mahsuloti 8,00 - 20,00, geksametilentetramin 0,35 - 1,00. Yarim kokslangan ko'mir mahsulotlari sifatida ko'mir smolalarining 230°C dan yuqori termik fraktsiyasini qo'llashni taklif etganlar. Modifikatsiyalangan bitum dastlabki bitumni bir jinsli aralashma hosil bo'lgunicha 110 ° C da yarim kokslangan ko'mir mahsuloti bilan aralashtirib, so'ng aralashmaga geksametilentetramin kiritilib, 160 °C gacha qizdirilgandan so'ng Shu haroratda qo'shimcha 30 minut davomida doimiy aralashtirilib olingan.[6]

Tomskix S.S., Jirkov M.A. kabi olimlar tomonidan bitum xossalalarini yaxshilovchi

qo'shimchalar ixtiro qilingan. Qo'shimcha tarkibida texnik mahsulot sifatida qattiq yoqilg'i qazilmalarining piroлиз mahsulotlari, amin birikma sifatida geksametilentetramin quyidagicha (mas.%) nisbatlarda keltirilgan: qattiq yoqilg'i qazilmalarning piroлиз mahsuloti yoki neft shlami 97,5 - 99,9, geksametilentetramin 0,1-2,5. Qattiq yoqilg'i qazilmalarni piroлиз mahsulotlari o'z tarkibida fenollar va alkilfenollar, neytral moylar va mineral aralashmalarni mos ravishda quyidagi miqdorlarda tutadi; 45-50, 49- 95 va 0,1-1,0 %. Taklif qilingan massa yuqoridagi komponentlarni 100°C dan past haroratda, atmosfera bosimida gomagen massa hosil bo'lguncha doimiy aralashtirib olingan. Olingan massa asoslik va kislotalik xususiyatlari materiallarga yaxshi adgeziyalanishi bilan birgalikda biotsid xossaga ham ega bo'lib, uni bitumga kiritilishi bilan ushbu bitumni mikroorganizmlar ta'sirida parchalanishiga chek qo'yildi. Bu esa o'z navbatida bitumning umri boqiyligini ta'minlashi taxmin qilingan [7].

Galdagi tadqiqotlar Marev V.A., Nemtsev V.A., Chernov O.N., Rudenskiy A.V. lar tomonidan olib borilgan bo'lib, bitum rezinali kompozitsiya olinish usuli bo'yicha tadqiqotlarda tarkibiga rezina qatroni, faol madifikator va bog'lovchi sifatida bitum kiritilib o'r ganilgan. Faol modifikator sifatida baraban kislotalarining qator birikmalar ishlatilgan. Bu tarkibiy qismlar tubandagicha (mas %): rezina qatroni 5,0 - 15,0, qator baraban kislotalari va ularni hosilalari 1,0-2,0, qolgani bitum, kompozitsiyada faol modifikatorlarning parchalanishi natijasida himoyalangan gazsimon mikrotarkiblar ko'rinishida hosil bo'lувchi kimyoviy faol zarralar hisobiga salbiy o'zgarishlarsiz bitumdagи rezina zarralarini tikilish va destruktsiyalanish jarayonlarini boshqarish qobiliyatiga ega bo'ladi. Bitum-rezinali kompozitsiyani olish usuli quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi; qizdirilgan bitumni rezina burdalarini bilan aralashtirish, hosil bo'lgan aralashmaga faol madifikatorlar qo'shish. Ushbu jarayonlarda bitum $190\text{-}205^{\circ}\text{C}$ gacha qizdirilib, rezina burdalarini qo'shish jarayoni bilan amalga oshiriladi [14].

Marchenko A.P., Smirnov N.V. lar tomonidan bitumsimon kompozitsion materiallar olish bo'yicha ixtiro tarkibida rezina saqlovchi bitum va dispers fazalarni o'z ichiga oladi. Kompozitsiya qo'shimcha ravishda tarkibida metall katalizatorlar yoki radikal initsiatorlari ishtirokida kompazitsiyalardan generatsiyalanuvchi yoki tashqaridan kiritiluvchi turg'un erkin radikal qo'shimchalarini tutadi. Ular konstruktсиyalarni suvdan

himoyalash (gidroizolatsiyalash), yo'l qurilishi, tom yopish ishlarida, metall konstruktsiyalar va quvurlarni agressiv muhitlardan himoyalashda, elimlar va mastikalar ishlab chiqarishda hamda bo'yoqchilikda qo'llanilishi mumkin. Tarkibi quyidagilardan (mas %) iborat: bitum 11,0-13,0, rezina bo'Lakchalari 55,057,0, tolali to'ldiruvchilar 22,0-24,0, polietilen chiqindilari 2,7-3,6, plastifikator 3,6 6,0, oltingugurt 1,3-2,2 lardan iborat [3].

Iliopolov S.K., Mardirosova I.V, Sheglov A.G., CHubenko E.N., CHerskov R.M lar bitumning yumshash xaroratini oshirish va sinuvchanlik xaroratini pasaytirish maqsadida bitumni modifikatsiyalovchi, rezina saqlovchi polimer olish ustida tadqiqotlar olib bordilar. Bunda tarkibida rezina bo'lgan bitumning polimer modifikatori o'z tarkibiga bitum, polietilen, rezina kukuni, plastiklovchi qo'shimcha sifatida mazut qo'llaniladi, devul-kanlashgan noorganik birikma sifatida qurilish ohagi ishlatiladi. Modifikator quyida-gilardan iborat (mas.%): bitum BND 60/90 47,0-62,0, mazut ko'rsatkichi 2,0-5,0, rezina kukuni 30,0-35,0, ikkilamchi polietilen (PE) 3,0 qurilish ohagi 3,0-6,0 [8].

Gorelik Rudolf Abramovich, Baliberdin Vladimir Nikolaevichlar tomonidan asfalt - beton aralashmalar uchun modifikattsiyalovchi kompozitsiya olingan bo'lib, tarkibi o'lchamlari 0,8 mm dan kichik bo'lgan zarrachali faol rezina qatronidan iborat va solishtirma geometrik tekisligining kattaligi 5000 sm dan kichikroq. Rezina vulkanizatsiya antiglomeratori bilan birgalikda termomexanik maydalash yo'li bilan olingan. Parafin, ozokrit va galogenli spirt-gelomerlar 0,1-2,0% gacha rezina massasiga nisbatan tanlangan, hamda kompozitsiya tarkibida igna strukturali metalsilikat, 4-nitro-N-metilanilin, N-metil-N, 4-dinitrozoanilin, N-(2 metil- 2nitropropil) - 4-nitrozoanilin, N-nitrozo-difenilamin guruhidan tanlangan ingiziator gel hosil qiluvchi va xech bo'limganda bitta yuqori induktsiyali davrli faslli kami 160°C haroratda 30 minut kam bo'limgan strukturalanuvchi agent mavjud. Bu agent aligomer epoksiefir smolasi, epoksidiodian smolasi polikonditsiya smolasi, guruhidan tanlangan. Bu guruhlar komponentlarning quyidagi nisbatlarida massada (%) faol rezina kukuni 65-90 %, igna strukturali metasilikat 4,0-25,0 gel xosil qiluvchi initsiator 1,0-4,5 strukturalovchi agent yoki stukturalovchi agentlar 1,7-6,0 % shoxasimon yoki tursimon strukturalar hosil qiladi.

[21]

Mironov Vyacheslav Aleksandrovich, Sulman Esfir Mixaylovnalar tomonidan bitum - polimer kompleks kompozitsiyasini olish usuli ishlab chiqilgan bo'lib, maydalangan polimer va kauchuk eritmasini ishchi temperaturada qavushqoq bitumga aralashtirishga asoslangan.

Polimer sifatida 265-280 °C xaroratida 15-20 minut davomida oldindan termik destruktsiyalangan polietilen terefati chiqindilari ishlatiladi. Qotishma keyinchalik 295-315 °C xaroratda 25-35 minut davomida ushlab turiladi,sovutiladi quritiladi va qattiq qotishma maydalanib, 0,001-0,071 mm razmerdagi zarrachali kukun olinadi. Keyinchalik bu kukun bog'lovchi 1,0-5,0 % massa tarkibida 1,6-1,9 % miqdorida ishlatiladi [3].

Korneychuk Gordey Kirilovich, Stiblo Galina Konstantinovna, Roztnberg Vladimir Vladimirovich, Zakrjevskiy Vladimir Borisovna, Krilova Lyudmila Petrovnalar tomonidan polimer-bitumli bog'lovchi olinish usuli ishlab chiqilgan. Tarkibida polimerning yarim kokslanish maxsulotlari va geksametilentetramin tutishi bilan farq qiluvchi, butadien-stirol laksopolimerlari hamda bitumdan iborat polimer-bitum bog'lovchisi tarkibiy qismlarining nisbatlari quyidagicha (mas.%):

Bitum 54,0 - 88,0, butadien va stirol laksopolimerlari 2,0 - 6,0, polimerning yarim kokslanish mahsulotlari 10,0-40,0 geksametilentetramin 0,1 - 2,0 100% dan oshiqcha.

Madar Ivan tomonidan quyi organik moddalarni depolimerizatsiyalash yoki termik va katalitik parchalash usuli va uni amalga oshirish uchun qurilma ishlab chiqilgan.

Stepenov Valeriy Fedorovich, Garbacheva Raisa Ivanovna, Nechinenniy Viktor Aleksandrovich, Brexov Pavel Petrovichlar tomonidan bitum polimerli izolyatsiyalash mastikasi va uni tayyorlash usuli taklif qilingan [16].

Mazkur mastika quyidagi tarkibiy qismlarga ega, mas % da: Bitum BND- 60/90-8,5-90, bitum BNI-4-0-20 va yoki bitum BN-70/30-0-90, divinilstirolli termoelastoplast 1,5-5,0, plastifikator 1,0-5,0, napolnitel 1,0-8,0, neftepolimernaya smola 2,0-8,0, adgezion qo'shimcha 0,3-1,5, modifikator 1,0-6,0. Bitum - polimerli izolyatsiyalash mastikasini tayyorlash usuli bitum, plastifikator va to'ldiruvchilarni aralashtirishdan iborat bo'lib, mastika tarkibiy qismlarini quyidagi tartibda aralashtirilishi bilan farqlanadi: dastavval yo'l qurilish va izolyatsiyalovchi bitumlarning aralashmasi tayyorlanadi, so'ng bu

aralashmani $60-170^{\circ}\text{C}$ xaroratgacha qizdirish yo'li bilan suvsizlantirilib aralashtirgichga beriladi va modifikator qo'shiladi. Hosil bo'lgan aralashmani $165 - 175^{\circ}\text{C}$ xaroratda 2,5 - 3,5 soat davomida, modifikator to'la erigungacha aralashtiriladi. Shundan so'ng to'ldiruvchi qo'shi-ladi, masalan, rezina bo'lakchalari qo'shib 25-35 minut davomida aralashtiriladi, keyin aralashtirish yana davom ettirilib neftpolimer simolasi, plastifikator va adgeziya ko'shim-chasi qo'shiladi [22].

Popov O.G., Posadov I.A., va boshqalar tomonidan bitum uchun faol qo'shimcha olingan va uzoq muddat xizmat qiluvchi yo'l qoplamlari sifatida taklif qilingan.

Sharipov Viktor Ivanovich, Beregovtsova Natalya Grigorevnalar tomonidan bitum kauchukli bog'lovchi olish usuli taklif qilingan bo'lib, texnik xususiyatlari yaxshilangan germetizatsion va izolyatsion materiallar mastikalar hamda modifikatsiyalangan bitumni bog'lovchilar olish usullariga taaluqli bo'lib, yo'l, aerodrom-gidrotexnik va boshqa qurilishlarda foydalanish uchun mo'ljallangan. Bitum bog'lovchining olininsh usuli, bitum bog'lovchiga nisbatan 2,5-5,0 mas. % miqdorda organik erituvchilardagi eritma ko'ri-nishida olingan kauchuk saqlovchi komponent bilan neft bitumini qizdirib aralashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi, kauchuk saqlovchi komponent sifatida, tarkibida 35 mas. % gacha kauchuk saqlovchi turg'unligi kam bo'lgan kauchuk navlarining eritmalaridan foydalaniladi, organik erituvchi sifatida esa ko'mirning suyuq maxsulotlaridan foyda-laniladi, xususan: toshko'mirning yarim kokslanish smolasi yoki qo'ng'ir ko'mirning yarim kokslanish smolasi yoki qo'ng'ir ko'mirni gidrogentlanish mahsulotlarining 350°C dan yuqori qaynovchi fraktsiyalari. Organik erituvchilaridagi turg'unligi kam kauchuklarning kontsentirlangan eritmalarini va neft bitumlari kompozitsiyalari asosida bir jinsli gomogen bog'lovchilar olish ixtironing texnik natijasi hisoblanadi [23].

Hozirgi kunda gossipal smolasi asosidagi bitumlarning bir qancha turlari ma'lum bo'lib, ularning ko'pchiligi faqatgina nazariy jihatdangina yoki laboratoriya tадqiqodlari darajasidagina ishlab chiqilgan. Gossipal smolasi asosida keng qamrovli bitum ishlab chiqarish bo'yicha olib borilgan ko'plab urinishlar muvaffaqiyat bilan tugallanmadni. Bunday muvaffoqiyatsizliklar olingan bitumlarning standart fizik-mexanik xossalarga ega emasligi, ob'ektga adgeziyalanishning kichikligi, eskirishga noturg'unligi, plastiklik

haroratlari, intervallari (oraliqlari) ning kichikligi, qimmatbaho komponentlar qo'shilishning hisobiga tannarhining yuqoriligi kabi qator kamchiliklari bilan bog'liq. Taklif qilingan tarkib va usul bo'yicha tayyorlangan materiallardan foydalanish, korrozi- yaga va suv ta'siriga turg'un, avtomobil yo'llari qurilishida tom yopishda, gidroizolatsi- yalar qoplamlarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan yuqori fizik mexanik va texnologik ko'rsatkichlarga ega bo'lgan kompozitsiya olish imkoniyatini beradi. Bulardan tashqari kompozitsiya asosan sanoat chiqindilaridan tarkib topgan bo'lib mahalliy xom ashyo asosida tayyorlanadi.

Maxkamov Xursand Mansurovich, Zemlyanskaya Nailya Raxmatullaevna, Xolodkova Tatyana Palvanovna, Rozanov Aleksey Evgenevich, Azizov Azamat Atako'zievichlar tomonidan paxta moyidan gossipol olish usuli bo'yicha ixtiro gossipol olishga tegishli. Ixtiro mazmuni quyidagicha: xom qora paxta moyiga 80-90 °C da o'yuvchi natriyning 4 % li suvdagi eritmasi bilan ishlab berilib, undan gossipol olinadi. Tindirilib sovitilgandan so'ng 30 °C da sulfat kislotaning 10 % li eritmasi qo'shiladi. Cho'kma 1- 1:2 nisbatda etilatsetat (yoki metilen xlorid) bilan ekstraktsiyalanadi. Suv qatlami ajratilgandan so'ng efir qatlami kontsentrlanib, texnik gossipol geksan bilan cho'ktiriladi. Quritilgandan so'ng tarkibida 70- 80 % gossipol saqlovchi cho'kma olinadi [31-32].

Iliopolov S.K, Mardirosova I.V., Seglov A.G., CHubenko E., CHerskov R.M., Xaddad L. kabi olimlar tomonidan rezina saqlovchi modifikatorlar taklif qilingan bo'lib, uning mohiyati quyidagicha tarkibda rezina bo'lgan bitumning polimer modifikatori o'z tarkibiga bitum, polietilen, rezina kukuni, plastiklovchi qo'shimcha sifatida mazut qo'llaniladi, devulkanlashgan noorganik birikma sifatida - qurilish ohaki ishlatiladi. Shu bilan birga polietilen ikkilamchi past va yuqori bosimda quritiladi. Modifikator quyidagilardan iborat (mas.%); bitum BND 60/80 47,0-62,0, mazut 2,0-5,0, rezina kukuni 30,0-35,0, ikkilamchi polietilen 3,0-7,0, qurilish ohagi. Natijada yumshash haroratini oshishi, yonuvchanlik haroratini kamayishiga olib kelgan [6].

Kashrskiy A.I., Mulyukov F.G., Popov V.V, Ruxlin YU.N., Svetov A.YA., Glebov A.V., Puriga T.V. tomonidan yangi bitumli tarkib taklif qilgan bo'lib, modifikatsiyalangan bitumdan janubiy Qozog'iistondagi neft konlari quvurlarini korroziyadan

himoyalash uchun “Plastobit”, “Podogretik” qoplamaridan elimlash qatlami sifatida qo’llanilishi mumkin. Modifikatsiyalangan bitumli tarkib quyidagilarni o’z ichiga oladi, (mass %), issiqlikka turg’unligi 44 - 65.0 °C bo’lgan oksidlangan bitum 99,0 - 98,0 va geksa-metilentetramin 1,0 - 2,0 [23].

Korneychuk G.K., Stiblo G.K., Rozenberg V.V., Zakrjevskiy V.B., Krilova L.P. kabi olimlar polimer bitumli bog’lovchi va uning olinish usulini taklif qilgan bo’lib, bu stirol va butadien bLaksopolimerlari va bitum saqlovchi polimer-bitumli bog’lovchilar tarkibida ko’mirning yarim kokslanish maxsulotlari saqlashi bilan farqlanadi. Tarkibiy qismlar quyidagi nisbatlarda olinadi (mas.%): butadien va stirolning bLaksopolimerlari 2.0-6.0, ko’mirning yarim kokslanish maxsuloti 10,040.0, geksametilentetramin 0.1-2.0.

Polimer bitumli bog’lovchi ko’mirning yarim kokslanish smolalarining 230 °C dan yuqori termik fraktsiyalaridan foydalilanligi bilan farqlanadi. Polimer bitumli bog’lovchi olish uchun 80 °C da ko’mirning yarim kokslanish mahsulotlari bilan butadien va stirol bLaksopolimerlari aralashmasi olinib, uni 2 soat davomida Shu haroratda doimiy aralashtirilgan holatda, harorat 122 °C gacha ko’tariladi. Qizdirilgan bitum 110 °C gacha qo’shilib, aralashtirish davom ettiriladi. So’ng 110 °C da geksametiltetramin qo’shiladi, keyin aralashma haroratini 160 °C gacha ko’tarib, yana 0,5 soat davomida aralashtiriladi.

Bu tadqiqotlar yo’l qurilish materiallari sohasiga oid bo’lib, mahsulotni avtomobil yo’llarining sirtiga ishlov berish uchun qo’llash mumkin. Tadqiqotning maqsadi bog’lovchining mo’rtlanish haroratini pasaytirish va yo’l qoplamarining umrboqiyligini oshirishdan iborat. Rezina bitumli bog’lovchi 1,2-12,0 % struktura hosil qiluvchi ishtirokida plastifikator bilan birgalikda issiqlik ishlovi berilgan 10-20 % rezina bo’Lakchalarini bitum bilan 150-180 °C da aralashtirish orqali tayyorlanadi [22].

Strebkov Dmitriy Semenovich, Rabbimov Raxim Teshaevich, Mirvaliev Zoxid, Djaliliov Abdulaxat Turabovich, Batova Dobchik Batoevich. Elektr kabellarini ximoya qiluvchi antikorrezion qoplama kompaund taklif qilingan. Elektr kabellarini zangdan himoya qiluvchi antikorrozion kompaunt asosi yog’li gudron, paxta saopstoklarni ishqorli tozalash-gossipol smola, modifikatsiyalanuvchi qo’shimcha tarkibi: bura, bornaya kislota, PbO, Pb₃O₃ va tanlangan gruppa: mochevina, ditsiandiamid va to’ldi-ruvchi guruhdan tanlab olingan: bo’r, talk, kaolin, oxak. Texnik natijaga erishishda antikorrozionli

komponentni eritish darajasini pasaytirib, kabel ustiga saqlash qoplamasini surtilganda issiqlik pasaytirilgan xolda ishlatganda natija beradi [7].

Kompaneets Valentina Georgievna, Belakon Nikolay Yurevich, Amerik Yuriy Borisovich, Shabalina Lyudmila Nikolaevna, Serebrovskiy Yan Konstantinovich tomonidan antikorrozion tarkiblarni olish usullari taklif qilingan. Ushbu tarkib metall yuzalarni asosan mashinalarni tub qismini antikorrozion himoyalashda ishlatiladi. Antikorrozion tarkib quyidagicha (mas.%): bitum 48,7-57,1, kontsentrlangan rezina kukuni 11,4-19,5, to'ldiruvchilar, katalizatorli chang, Neft fraktsiyasini katalistik kreking katalizatorning chiqindisi 2,9-7,3, neft erituvchisi $T_s = 85-120^\circ C$. Rezina kukuni kontsentratini massa nisbati 1:1 bo'lган rezina kukuni va yuqori xarorat erituvchisi ya'ni (katalistik krekingning aromatlangan fraktsiyasi yoki to'g'ri haydalgan neft fraktsiyasi) aralashmasidan iborat. Kontsentrat quyidagicha tayyorlanadi (mas.%): 2,5 soat davomida $230-270^\circ C$ da rezina kukuni va yuqori qaynash temperatura erituvchilariga ishlov beriladi. Undan keyin unga bitum, to'ldiruvchi va neft fraktsiyasi $T_{kip} = 85-120^\circ C$ erituvchisi qo'shiladi. Bu jarayon to'xtamasdan aralashtiriladi. Rezina kukuni ishlatiladigan eritmali fraktsiyalarda $T_{fa}0s, p = 297-481^\circ C, 247-464^\circ C$ [7].

Ivanov Iliyan va Venkov Atanaslar tomonidan izoxinolin xosilalarini sintez qilish uchun Pikte-Shpenglar turidagi reaktsiyalarda geksametilentetraminni qo'llash bo'yicha izlanishlar olib borganlar.

III. TADQIQOT OBYEKTI VA XOM ASHYO VA TAYYOR MAXSULOTLARNI ANALIZ QILISH USULLARI

3.1. Tatqiqot ob'ekti

Havola qilinayotgan nazariy va amaliy ishning asosiy obektlari:

- Gossipol smolasi yog‘ – moy sanoati chiqindisi;
- Uratrapin;
- Uniflok;

- CaO;
- Kaliy bixromat;
- Karbaksilmetilseluloza;
- ZnO;
- Temir II oksid;
- Vermuklit;
- Mis kuporo'si;

Paxta moyi ishlab chiqarishda ikkilamchi sifatida ko‘p tonnalik soapstok va undan yog‘ kislotalari olishda gossipol smolasi hosil bo‘ladi. Respublikamizda mavjud 19 ta moy ishlab chiqarish korxonalaridan 4 tasida (Kattaqo‘rg‘on, Yangiyo‘l, Urganch, Andijon) soapstok qayta ishlanib, yog‘ kislotalari olinadi. Bu jarayonlarda paxta gudroni yoki gossipol smolasi chiqindi sifatida hosil bo‘lmoqda. Respublikamizda yiliga 20 ming tonnadan ko‘proq gossipol smolasi yig‘ilib qolmoqda yoki tashlab yuborilmoqda.

Tadqiqot predmeti yuqoridagi tur mahalliy xom ashylar va sanoat chiqindilari asosida yangi turdagи gidroizolyatsion bitumolishga qaratilgan. Tadqiqotlarda kimyoviy, fizik-kimyoviy uslublardan foydalanildi.

Yog‘ kislotalarini distillash $220\text{-}230^{\circ}\text{S}$ da olib boriladi. Mazkur jarayon natijasida yog‘ kislotalarining haydalishi bilan bir vaqtda kubda 40-50% miqdorida kondensatsiya mahsulotlarini tutuvchi gossipol smolasi hosil bo‘lib, polimerlanish jarayonlari boradi. Gossipol smolasining tarkibi ko‘pchilik olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, smola 52-64% xomaki yog‘ kislotalari va ularning hosilalaridan, qolgan qismi esa gossipolning polimerizatsiya va kondensatsiya mahsulotlari va uning moylarni ajratib olishda hosil bo‘ladigan o‘zgarish mahsulotlaridan tashkil topgan.

Xom-ashyo tog’risida ma’lumotlar

Gossipol smolasi- fizik kimyoviy va kimyoviy xarakteristikasi Gossipol $\text{C}_{30}\text{H}_{30}\text{O}_8$ (Brutto formulasi) sariq rangli zaharli, qattiq kristall modda. G’o’za (Gossypium) ning asosiy maxsulotlaridan biridir. U g’o’zaning hamma organlarida bo‘lib, uning miqdori chigitning mag’zida % gacha, ildiz po’stlog’ida % gacha qolgan boshqa qismlarida esa

kam bo'ladi. Gossypol va uning analoglari gossipur-purin, gossiverdurin, gossifulin chigit yadrosidagi maxsus bezchalarda joylashgan bo'lib, ular devoir nihoyatda mustahkam va ko'pchilik organic erituvchilar ta'siriga chidamli. Gossipol smolasi-noozuqaviy yog'-moy maxsulotis bo'lib, paxta soapstogi yog' kislotalarining distilyatsiya qilishda qolgan gudron. Soapstok yog' va moylari ishqoriy neytrallashdan olingan oraliq mahsulotdir. Gudron esa distillanmaydigan kubli qoldiq hisoblanadi. Gossipol smolasi sifat ko'rsatkichlari va qo'llanilishiga ko'ra ikki turga bo'linadi [27-28].

Vermukulit. Asosan vermukulit qo'pchitilmaydigan tog' jinslari bilan birgalikda karerdan qazib olinadi. Qo'pchitilgan vermukulit – tabiiy vermukulit kuydirish natijasida hosil bo'ladigan to'kiluvchan donador material bo'ladi. Tabiiy vermukulit – yuqori gidratlangan syuda hisoblanib tarkibida kristallangan suv miqdori ko'pligi bilan ajralib turadi. Harorat 850 -1200 °C oralig'ida katta tezlik bilan mahsulot qizdirilganda suv bug'lari chiqib ketishi natijasida va alohida slyudalarning o'zaro yengil bog'langan plastinkalarning ko'pchitilishiga uchraydi. Ayrim vermukulit namunalarining hajmi 15-20 martagacha va undan ham ko'p marta oshib ketadi. Vermukulitning zichligi 2,05–2,71 gr/sm³, erish harorati 1300 °C tog' jinslarining namligi esa 10 % dan oshmasligi kerak . Ko'pchitilgan vermukulitni vermukulit mineralidan kuydirish natijasida olinadi. Vermukulit lotincha so'zdan olingan bo'lib kurt xolatda degan manoni anglatadi. Texnologiyada vermukulit deb qizdirilganda parchalanish qobiliyatiga ega bo'lgan barcha gidratlangan slyudalar kiradi. Vermukulit past xaroratdagi gidratermal jarayonlarning xosilasi bo'lib, plastik strukuraga ega bo'ladi. Kimyoviy tarkibiga qarab slyudala murakkab alyumosili-katlar turkimiga kirib quyidagicha umumiyl formula ko'rinishida yozish mumkin:



Bu formuladagi R⁺-bir valentli kaliy va litiy ionini R⁺²⁻ ikkivalentli magniy, temir marganes kationini va R⁺³⁻ uch valentli alyuminiy temir, marganes, xrom va boshka kationlarni anglatadi. Biotit guruxchasiga flugopit va biotitni o'z ichiga oladi.

Flogopig - KMg₃[Sialo₁₀][F OH]₂ yoki K₂O₆Mg Al₂O₃ SiO₂XX₂H₂O yunoncha so'zdan olingan bo'lib "fogos"-olov turdagি mineralning rangidan kelib chiqqan holdan nomlangan.

Bundan”%”:7-10,3K₂O;21,4-29,4 Mg O;10,8-17Al₂O₃;38,7-45SiO₂43,2%;0,3-5,4 H₂O va 6%gacha 6 F bo’ladi. Aralashmalardan ko’pincha 9% gacha FeO va 2,5% va O va 2% Na₂O bundan tashqari Fe₂O₃bo’lishi mumkin. Buning suyuqlanish harorati 1290-1330 °C

Biolit –k(mg,Fe)₃[Si₃Al₁₀][OH₁E]₂ yoki K₂O₆(Mg Fe)Al₂O₃ * SiO₂2H₂O .

Mineralni analiz qilish jarayonida quyidagi miqdorlarda mineral elementlarning tarkibiga kirishi malum bo’lgan 6,18-11, 43 K₂O; 0,28-28, 34 MgO; 2,74-27, 6 FeO; 0,13-206 Fe₂O₃; 9,43-31, 69 AL₂O₃;32,83-44, 94 SiO₂; 0,89-4,64 H₂O va O-4,23 F, Ti O₂, Na₂O vaqo’shimchalaribo’lishimumkin.Bu meneralning suyuklanish darajasi 1145-1150°C

Muskovit - KAl₂[AlSi₃O₁₀]XX[OH]₂yoki k₂O 3Al₂O₃ 6SiO₂XX 2H₂O tarkibiga:11,8K₂O;38,5 Al₂O₃;45,2 SiO₂;4,5% H₂O;

Gidromoskivit-moskivitning gidrolizi natijasida hosil bo’lgan. Undagi H₂O ning miqdori 8-95 ga teng bo’ladi.Moskivitning suyuqlanish harorati 1125-1260 °C teng. Magnizayl - temir shidalaridagi olitli suv guruhlari mavjud bo’ladi. Isiolitli suv deb tarkibida bir qancha qattiq holatdagi minerallar bo’lib qizdirganda ular erish qobiliyatiga ega bo’lgan minerallarga aytildi. Bu guruhgaga kimyoviy tarkibi jihatidan gidrodlangan biolit va flogopitlar kiradi.

Vermukilitning sutruktura formulasi quyidagi ko’rinishga ega bo’ladi. (Mg+2;Fe+2;F+³)₃[(sial)₄O₁₀](OH)₂ H₂O₂. Tarkibga oksitlarning miqdori % hisobida quyidagi ko’rinishga ega bo’ladi.1-9FEO;14-25 MgO A₂O₃ gacha ayrim holatlarda CaO arlashma 8-20 % miqdorida bo’ladi. Sluydalarda suvning miqdori 2%dan oshmaydi. (Gidrodstratsi) Gidrodtatsiya darajasi va ko’ptishishgacha bo’lgan oraliqda to’g’ridan to’gri bo’g’liklik ko’rinmaydi buni vermukulit qatlami va gidratlangan shudalar katta o’zgarishlarga olib keladi. Ko’pchitilgan vermukulit donachalar kub shaklidagi formaga ega bo’libgidrasuluda zarrachalari esa plastinkasimon formaga ega bo’ladi.

Urotropin. Smola hosil bo‘lishini ta‘minlovchi komponent. Urotropin (geksamiltetramin) rangsiz kristall modda bo‘lib 280°C da suyuqlanmasdan parchalanadi.Suvda eruvchanligi yaxshi (100 gramm suvda 81 gramm eriydi) bo‘lib, geksagidrat (CH₂)₆N₄·6H₂O hosil qiladi. Uratropin beqaror asos bo‘lib, kislotalar bilan beqaror tuzlar hosil qiladi. Agarda kislota miqdori ko‘p bo‘lsa ammiak va farmaldegidga parchalanadi.

Urotrapin ishqorlarga barqarordir. U asosan fenolfarmaldegid smolalar, geksagen ishlab chiqarishda va tibbiyotda antiseptik sifatida ishlatiladi. Analitik kimyoda bufer eritmalar tayyorlashda, texnikada karroziya ingibitiri sifatida keng qo'llaniladi.

Kalsiy oksidi (so'ndirilmagan ohak) GOST 8677-76 talablariga mos keladi. Kalsiy oksidi oq bo'laklardan yoki kukun holida bo'lish kerak, zarrachalar birbiri bilan yopishmagan holda suvda qiyin eruvchan, kislotalarda yaxshi eriydigan modda. Ochiq turgan holda namni va karbonat angidridni o'ziga tortib oladi. Fizik - kimyoviy ko'rsatgichlari bo'yicha kalsiy oksidi quyidagi keltirilgan jadval talablariga javob berishi kerak.

Biz ishlatgan so'ndirilmagan ohak (CaO) do'konlarda sotiladigan bo'lib, oq va nimrang sariq tusli, suvgaga solinganda suv bilan reaksiyaga kirishib ozi yaxshi maydalanib, qo'shimcha qoldiqlar hosil qilmasdan gidroksid zarrachalarini hosil qildi. Shu sababli biz ishlatga kalsiy oksidini yuqoridagi talabga javob beradi deb hisobladik.

Kalsiy oksid (CaO) bo'laklarini havonchada maydalab, 1 smda 100 dona teshigibo'lgan elakchalardan o'tkazib, so'ngra qizdirilgan gossipol smolasi tarkibiga aralashtirdik.

3.1. Xom-ashyolar va olingan kompozitsiyalarni kimyoviy va fizik-kimyoviy analiz qilish uslublari

Sinalayotgan partiyadan namuna hajmiga bog'liq ravishda GOST 30547 talablariغا mos ravishda olinadi. Sinovdan oldin xelat kompleks birikma erituvchi qo'shib suyuqlik darajasi GOST talab darajasiga olib kelinadi.

Tashqi ko'rinishi va surtilish darajasiga qo'yiladigan talablarga javob beruvchi har bir kompleks qoplama metall yuzasi tozalangandan keyin 1-2 mm qalinlikda butun yuza bo'ylab tekis qilib surtiladi. Qoplama qanchalik mustahkam qoplanishi yuzaning tozalik darajasiga bog'liq hisoblanadi.

SHimish darajasini aniqlash uchun xar bir rulondan materialni butun eni bo'ylab uzunligi 50 ± 5 mm bo'lgan ko'ndalang kesim olinadi.

Material bo'lagidan uning butun eni bo'ylab sinov uchun namunalar kesib olinadi, bunda uchta namunadan ikkitasi chetlaridan kamida 25 mm masofadan olinadi va 1 ta

bo‘lak o‘rtasidan.

Namunalarni sinashga tayyorlash va sinovni o‘tkazish boshqa ko‘rsatmalar bo‘lmasganda (20 ± 5) °S da olib boriladi.

Namunalarni doimiy massagacha quritish 105-110°S da amalga oshiriladi. Quritish boshlangandan kamida 30 minutdan keyin bajarilgan ikkita o‘lhash orasidagi farq 0,04 g dan ko‘p bo‘lmasligi kerak.

Son qiymatli ko‘rsatkich sifatida rulon uchun olingan namunalarning, partiya uchun esa olingan rulonlar ko‘rsatkichining o‘rtachasi olinadi.

Material polotnosining chiziqli o‘lchamlari (eni va bo‘yi) 1 mm aniqlikdagi metall lineyka yoki metall ruletka bilan o‘lchanadi, qalinligi esa (yirik donador yoki tangachasimon qatlamlı materiallardan tashqari) – 10 mm gacha 0,01 aniqlikda o‘lchaydigan qalinlik o‘lchagich yoki Shunday aniqlik bera oladigan boshqa qurilmada o‘lchanadi.

Material polotnosi uzunligi polotno chetidan, eni esa polotno chetidan kamida 1 m masofada o‘lchanadi.

Natijalar material polotnosi uzunligi uchun 0,1 m gacha va material polotnosi eni uchun 1 mm gacha yaxlitlanadi. Uzunligi 15 m dan katta bo‘lgan rulonlar uchun uzunlik o‘rash qurilmasi hisoblagichidan aniqlanadi.

Hisoblagichni tekshirish belgilangan tartibda amalga oshirilishi kerak. Material qalinligi uchta 100×50 ± 1 mm o‘lchamli namunada, ularning o‘rtasidan o‘lchanadi. Natijalar 0,01 mm gacha yaxlitlanadi. Rulon sirti uzunlik va enni o‘lhash natijalari asosida hisoblanadi. Natijalar $0,1 \text{ m}^2$ gacha yaxlitlanadi.

3.2. Xelat tipidagi zangga qarshi qoplamani turli muhitlarga chidamliliginini aniqlash

Namunalar ekspluatatsion xossalari sinashga tanlash va ularni tekshirishga tayyorlash GOST 9980.2 talablari bo‘yicha amalga oshirildi. Namunalar surkaladigan plastinkalar GOST 8832.3 ga muvofiq tanlandi. Kompozitsion qoplamalarning fizik-mexanik xossalari $150 \times 70 \times 1,0$ o‘lchamli 08KP va 8KS markali po‘lat yuzalarda sinaldi.

Kompozitsiyalar zanglagan va zanglamagan yuzalarga moybuyoqlar yordamida 50-70 mkm qalainlikda surkaldi va qoplamlarga botirilgan holda tayyorlandi. Zanglagan yuzalar plastinkani 72 soat maboynida 3 % li NaCl eritmasida saqlagan holda tayyorlandi. Surkalgan kompozitsiyalarni quritish 20 ± 2 °C da 24 soat davomida amalga oshirildi. Sinovlardan oldin namunalar 3 soat davomida 20 ± 2 °C ushlab turildi.

Zangga qarshi kompozitsiyalar **qobiqlari qalinligi** ITP-1 tipidagi magnitli o‘lhagichda aniqlanadi. Asbobning ishlash prinsipi ferromagnit taglikka surkalgan magnitmas qobiqning tortishish kuchining qobiq qalinligiga bog‘liqligi nomogrammaga solishtirilib, mikrometrda topiladi.

Zarbga chidamliligi GOST 4765-78 talablariga asosan o‘lchandi. O‘lchovlarni U-1A asbobida olib borildi. Bunda 1 kg massali yukning tushishidagi qoplamanini mexanik buzmaydigan balandligi (sm) aniqlandi [43].

Adgeziyani aniqlash GOST 15140-76 talablari asosida o‘rganildi. Adgeziya korroziyabardosh qoplamlarda muhim parametr hisoblanib, bu ko‘rsatkichga metallarni korroziyadan himoyalanish darajasi, qoplamaning uzoq muddat ekspluatatsiyalanishi kabilar chambarchas bog‘liqidir. Bu ko‘rsatkichni aniqlashda 2 ta uslubdan foydalandik. Birinchi uslub—panjarali kesish bo‘lib, u tekshirilayotgan ob‘ektni olmos yoki skalpel yordamida 5 dan kam bo‘lmagan 1-2 mm oralig‘idagi perpendikulyar kesishlar qilishga asoslangan. Kesilgan qoplamlar maxsus cho‘tkalar yordamida tozalanadi va 4 balli shkala bo‘yicha baholanadi [44].

Ikkinci uslubda 5 dan kam bo‘lmagan parallel kesishlar qilinadi va kesilgan qoplamlar yuzasiga yopishqoq 10x10 mm o‘lchamdagini polietilen lenta yopishtiriladi. Lenta tezlik bilan yulib olinadi va 3 ballik shkalada baholanadi. Himoya xossalaring barqarorligi 8 ballik shkalada aniqlanadi

Unga ko‘ra qoplamaning darz ketishi, qobiqlanishi, havo pufaklari hosil bo‘lishi, korroziya paydo bo‘lishi, maydalanishi kabi turli buzilishlar vizual aniqlandi. YUqori ball 8 bo‘lishi, barcha buzilishlar yo‘qligidan dalolat beradi. O‘rtacha ball 4 bo‘lishi, 25% gacha buzilishlar borligidan darak beradi. Eng past bal 1 da to‘la buzilishlar—chuqur yoriqlar paydo bo‘lishi, maydalanish, qobiqlanish va 10 % dan ortiq yuzada korroziya

paydo bo‘lishiga mos keladi [45].

Qoplamlarni suvgga chidamliligi namuna distillangan suv to‘ldirilgan stakanga solinib, suv sathi aniqlandi va shu sath doimiy saqlanadi. Namunalar 1,3,5,10,14 sutka oralig‘ida vizual nazorat qilindi. Suvdan olingan namunalar darhol ko‘rib chiqildi va 1-2 soat havoda qoldirilib, o‘zgarishlar aniqlandi [45].

Tuzga chidamlilik 3% li NaCl ning filtrlangan eritmasida belgilangan muddatlarda saqlash orqali aniqlanadi.

Kompozitsion materiallarning **yonish haroratini** Brenken usulida aniqlandi. Buning uchun ochiq chinni tigelga namuna eritib solindi va 25 °C gacha sovitildi va kuydirilgan qumli apparatga qo‘yildi. Tigelning qirg‘oqlaridan 12 mm ichkarida bo‘lishiga e’tibor berish zarur. Tigelning ichiga vertikal ravishda termometr o‘rnatildi. Shundan so‘ng gaz gorelkasida 10 °C/min tezlikda namuna solingan tigel qizdirilib borildi. Tigel ichidagi namunaning birinchi ko‘k alanga berib yonish harorati ushbu ko‘rsatkichni aniqladi. Turli muhitlardagi korroziya tezligini o‘lchashda polyarizatsion qarshilikni o‘lhash usulidan foydalandik [50].

Tajriba 1.

Gossipol smolasini suvsizlantirish bo‘yicha tadqiqotlar

Tajriba uchun Urganch yog’-moy kombinatidan keltirilgan gossypol smolasini suvsizlantirish jarayonini o’rgandim. Urganch yog’-moy korxonasi tarkibida hosil bo’ladigan gossipol smolasida 10-15% ba’zan 20% gacha namlik bo’ladi. GOST 18-114 tarmoq standartiga asosan gossypol smolasida namlik 4% dan oshmasligi kerak. Gossypol smolasini quvurlar orqali tashilishini osonlashtirish maqsadida o’tkir bug’ ishlatiladi. Ushbu bug’ni kondensatsiyalashishi hisobiga gossipol smolasasi tarkibidagi namlik oshib ketadi. Shuning uchun gossypol smolasidan foydalanishda uni suvsizlantirish talab qilinadi, aks holda uni tarkibidagi suv miqdori reaksiyaning borish mexanizmini va tayyor mahsulot sifatini buzadi. Bu jarayon ko‘p vaqt talab qiladi. Suvsizlantirish jarayoni spesifik holatlarni o’rganish maqsadida biz uni suvsizlantirishni ilmiy tadqiqotimizda ko‘rib chiqdik. Adabiyotlar tahlilidan kelib chiqib gossypol smolasini tarkibini yetarlichcha o’rgandim. Bunga ko‘ra gossypol smolasida 12% azot saqlovchi moddalar, 36% gossypol


smolasasi o'zgarish mahsulotlari va qolgan qismi yog' va oksi yog' kislotalaridan iborat ekanligini bildim. Gossipol smolasini suvsizlantirish jarayoni 500 gr miqdorda namuna olinib qum hammomida o'tkaziladi. Tadqiqotlarda har 10 daqiqadan haroratni o'zgarishi qayd qilib boriladi. Bunda tarkibni harorati 30 daqiqa o'tgandan keyin 55°C ni tashkil qiladi. Urganch yog'-moykombinat gossipol smolasini suvsizlantirishni o'rghanish natijalarimni quydagi jadvalda keltirdim.

Jadval 2

Urganch yog'-moy kombinat gossipol smolasini suvsizlantirishni o'rghanish natijalari

	Xarorat (°C)	Yo'qotishlar (%)	Kuzatishlar natijasi
	50	0,9	Suv bug'larini kuchsiz chiqishi
	60	1,3	Suv bug'larini boshlang'ich chiqishi
	70	2,3	Suv bug'larini chiqishi
	80	3,7	Suv bug'larini chiqishi
	90	9,6	Suv bug'larini chiqishi
	100	13,5	Past qaynash
	110	15,4	Qaynash
	120	16,3	Bir maromda qaynash
	130	17	Kuchli qaynash
	140	17	Kuchli qaynash

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida tubandagi grafikni chizdim



5-Rasm. Urganch yog'-moy kombinati gudronining suvsizlanish

jarayoniga haroratning ta'siri

Yuqoridagi grafikda suvsizlantirish jarayonida harorat 10° - 55°C dagi massa kamayishi, suvsizlanish 1%, 40 daqiqa o'tgandan keyin harorat 85°C ga ko'taril-ganda bunda massa yo'qotilishi 4% tashkil qildi. 1 soatdan keyin harorat $95,5^{\circ}\text{C}$ ni tashkil qildi bunda yo'qotilish 10% ni tashkil qildi. 120°C da yo'qotilish 16% ni tashkil qildi. 2 soatdan keyin harorat 125°C etdi bunda yo'qotilish 17% ni tashkil etdi. Harorat 140° - 160°C ga etganda yo'qotilish 18% ni tashkil etdi. Bundan keyin yana 10° - 30°C haroratni oshirdim, biroq gossipol smolasida yo'qotilish kuzatli-madi. Suvsizlantirish jarayoni 150 daqiqa davom qildi. Tajribamdan shuni angladim-ki gossipol smolasini suvsizlantirish jarayonining **optimal harorati 160°C** ekan.

Tajriba 2. CaO miqdorining igna botish chuqurligiga ta'sirini o'rganish


CaO bilamizki massani qotirish xususiyatiga egaligi uchun massaga dastavval tajribani gossypol smolasi va CaO ishtirokida olib boramiz. Buning uchun gossipol smolasi 99,5%, CaO 0,5% 160°C temperaturada qo'shganimda qotmadi. Gossipol smolasi 99%, CaO 1,0% 190°C qo'shganimda sal qotdi. Gossipol smolasi 98,5%, CaO 1,5% 200°C qo'shganimda qattiqligi sal oshdi lekin optimal daraja bermadi. Gossipol smolasi 98%, CaO 2,0% 210°C qo'shganimda qattiqligi oshdi. Gossipol smolasi 97%, CaO 3% 220°C qo'shganimda normal darajada qotdi. Gossipol smolasi 96%, CaO 4% qo'shganim 230°C normal darajadan oshdi qattiqligi. Gossipol smolasi 95%, CaO 5% qo'shganim judayam qotib ketdi shu bilan tajribamni to'xtatdim. Shu bilan eng optimal natijam 3% li CaO qo'shganim deb hisobladim. Olingan natijalar quydagi jadvalda keltirilgan

Jadval-2

CaO ning igna botish chuqurligiga ta'siri

№	CaO miqdori, %	Igni botish chuqurlig, mm
1	0,5	33
2	1,0	20
3	1,5	13,5
4	2,0	11,5
5	3,0	10
6	4,0	9
7	5,0	8

Ushbu jadval asosida tubandagi grafikni chizdik.



6- Rasm. CaO miqdorining igna botish chuqurligiga ta'siri


Jadval va grafikda ko'rinish turganidek CaO 0,5% qo'shganimda igna botish chuqurligi 33 mm, CaO 1,0% qo'shganimda igna botish chuqurligi 20 mm, CaO 1,5% solganda igna botish chuqurligi 13,5 mm, CaO 2,0% solganda igna botish chuqurligi 11,5 mm, CaO 3,0% qo'shganimizda igna botish chuqurligi 10 mm, CaO 4,0% igna botish //chuqurligi 9 mm, CaO 5,0% solganda igna botish chuqurligi 8 mm. Ushbu tajriba natijalarim shuni ko'rsatdiki eng **optimal 3% li CaO** qo'shganimiz maqsadga muvofiq deb hisobladik. Igna botish chuqurligini Penetrometr –LP asbobi yordamida aniqladik.

Nº 3 - Tajriba Tarkibga vermekilit ta'sirini o'rganish

Gossipol smolasiga talk va kalsiy oksidni ta'sir qildirib yaxshi natija ola boshlangandan keyin unga kaolin va vermekilitning ta'sirini o'rgandim. Birinchi navbatda kaolinni 1, 1,5, 2, 2,5, 3,0, 3,5 % miqdorlarda qo'shdim va eng yaxshi natjaga 1,5 % qo'shganda erishdim. Bu qiymatlarim 5-jadvalda keltirilgan.

Xom ashyolar miqdori

Nº	Xom ashyo	Miqdori, %	Miqdori, %	Miqdori, %	Miqdori, %	Miqdori, %	Miqdori, %
1	Kaolin	1,0	1,5	2,0	2,5	3,0	3,5
2	Vermukilit	0,5	1,0	1,5	2,0	2,5	3,0



**8 – Rasm Tadqiqot natijalari
№ 4-tajriba**

Massaga karboksimetilselulozani qo'shish jarayonini o'rghanish

Karboksimetilselluioza qoplamaning adgeziyon qobiliyatini oshiradi. Bunda quyidagi jarayon sodir bo'ldi. CaO qo'shib bo'lingandan keyin 170°C ga tushiriladi va songra chinni hovonchada maydalangan KMS qoshish jarayoni amalga oshiriladi. Men bu jarayonni amalga KMS ni 1-8 % miqdorida komponentga qo'shib ko'rdim. 1% miqdorida qo'shganda undagi o'zgarish sezilmadi. 2-2,5 % qo'shdim bunda cho'kma hosil bo'lmasdi o'zgarish yaxshi bo'ldi va bo'yoq uchun yopishqoqligini oshirdi unda yaltiroqligi ham kamaymadi suyuqlanib ham ketmadi. 6-7% da esa reaksiya tugagach cho'kma paydo bo'ldi va juda tez quyilib qolib yopishib qotib qoldi. Men tajriba natijalari Shuni ko'satdiki 2,5% maqsadga muofiq tarkib hisoblanadi.

7-Jadval

Karbosimetilseluloza qo'shish jarayonidagi ko'rsatgichlar

Nº tadqiqot tartib raqami	Reaksion massaga qo'shilgan karbaksimetilselleloza miqdori, %	Qotis vaqtি, soat
1	1,0	27
2	1,5	19
3	2,0	16
4	2,5	11
5	3,0	7

№ 5 -tarjiba

Uratrapin qo'shish jarayonini o'rghanish

Bizga ma'lumki uratrapin qoplamaning korroziyaga qarshiligini oshiradi Shuning uchun biz qoplamaga 0,2 -1% fozigacha uratrapin qo'shib ko'rdik va bunda eng yaxshi natijani 0,5 foiz qoshganda oldik karboksimetilsellyuloza qoshilgandan keyin harorat 140 °C ga tushiriladi va maydalangan uratrapin qo'shiladi va 10 minut davomida aralashtiriladi. Uratrapin qoshish jarayoni diagrammasi quyidacicha bo'ladi.


8-Jadval

Uratrapin qo'shish jarayoni ko'satgichlari

Tarkib	Uratrapin miqdori %	Himoya darajasi %
1	0,5	99,8
2	0,6	80
3	0,7	58

Uratrapin miqdorini 0,3 % da qo'shganda 15% li sul'fat kislotaga ta'siri 58 % ni tashkil qildi, 0,4 % qoshganda esa bu ko'rsatgich 80% ko'tarildi keyin uning miqdori 0,5 % da

qo'shdik bunda bu ko'rsatgich 99,8 % ni tashkil qildi.



6-rasm. Qoplama tarkibidagi uratrapin miqdorining

15% li H_2SO_4 ga himoya darajasi

Nº 6 –tarjiba

Ruh II oksid va kaly bixromat qo'shish jarayoni.

Tayyorlanayotgan qoplamani kislota va ishqoriy muhitga chidamligini oshirish maqsadida ruh II oksid va kaly bixromat 0,1dan 5 % miqdorgacha qo'shib sinovlar olib bordim. Sinov natijalar 0,1-0,5 oralig'ida qo'shganda kuchsiz kislota ta'siriga uchradi va yemirilib boshladi, ammo ishqoriy muhitda hech qanday o'zgarishga uchramadi. Tayyorlanayotgan massa tarkibiga 0,6-2 % gacha ruh II oksid qo'shganimda kislotalik muhitga tasirini namoyon qilmadi va qoplama sirti o'zgarmadi. 2-5 % gar uh II oksid va kaly bixromat qo'shganimda o'zgarish kzatilmadi. O'tkazilgan tajribalardan men olinayotgan maxsulot uchun 1% dan qilib rux II oksid va kaly bixromat qo'shdim. Bu ikki moddani namunaga qo'shish natijasida rux va xromli kompleks qoplama hosil bo'ldi. Amaliyotda ma'lumki xromli va rxli qoplamlar zangga qarshi eng samarali hisoblanadi.

№ 6 -tarjiba


3.5. Erituvchi qo'shish jarayoni

Tayyor bo'lган qoplamaning suyultirish jarayonida harorat 70-80 °C gacha tushuriladi va aralashtirgich yordamida aralashtirish jarayoni amalga oshiriladi. Eritish jarayonini amalga oshirishda erituvchi sifatida nefraz yoki uayt-spiritedan foydalanish mumkin. Erituvchining miqdori 35-45% ni tashkil qilishi lozim. Erituvchini oz-ozdan qo'shib aralashtirish maqsadga muofiq hisoblanadi. Lekin juda oz miqdorda qo'shib aralashtirilsa erituvchi uchub ketib qoplama qotib qolishi mumkin. SHuning uchun meyyorida qotish maqsadga muvofiiq. Nefraz yoki uayt-spirit alangalanish hususiyati yuqori hisoblanadi. Bu jarayonni amalga oshirishda aralashtirish jarayoning intensivligini taminlash lozim. Erituvchining miqdori yuqori bo'lsa qoplamaning qotish jarayoni past hisoblanadi. SHuning uchun erituvchining miqdorini 50 % oshirmslik kerak miqdoridagi. Men bu tajriba jarayonida 35-45% gacha erituvchi qo'shib ko'rdim va eng yahshi natijani 40 % miqdorda qo'shganda oldim.

Bunda qoplamaning qotish tezligi yahshi chiqdi. Qoplamaning kovushqoqligi viskazomert asbobida o'lchanadi unga ko'ra BT-loklarning qovushqoqligi xona haroratida 12 Pa.s ni tashkil etadi. Ertituvchi miqdorining qovushqoqlikga ta'siriga qiyidagi jadvalda ifodalangan.

Erituvchi miqdorining qovushqoqlikga ta'siri

<i>Qovushqoqlik Pa*s</i>	42	25	16	12
<i>Erituvchi miqdori %</i>	10	20	30	40



Texnologik sxema tanlash va uning tavsifi

Jarayonni amalga oshirish uchun ilmiyy tadqiqotlar asosida korroziyaga qarshi xelat tipidagi qoplama olishni texnologik sxemasi yaratildi. Bu texnologik sxema gossipol smolasi, CaO, kanifol, karboksimetilselyuloza, erituvchi,ZnO, uratrapin, temir II oksit, mis kuporosi asosida antikorrozion qoplama olishga asoslangan .

Texnologik jarayonlar quyidagi bosqichlardan iborat:


- Gossipol smolasini reaktorga yuklash va suvsizlantirish.
- Gossipol smolasi kalsiy oksidi qo'shish jarayoni.
- Karboksimetilselyuloza qo'shish jarayoni.
- Uratrapin qo'shish jarayoni.
- Uniflok qo'shish jarayoni.
- ZnO vat emir II oksid qo'shish jarayoni.
- Mis kuporo'si qo'shish jarayoni.

-Konifol qo'shish jarayoni.

-Bitumsimon mahsulotni erituvchida eritish va antikarroziyon material olish.

- Olingan antikarrozion mahsulotni qadoqlash .

Antikorroziyon qoplamlalar olish jarayoni lok bo'yoq sanoatida qo'llaniladigan oddiy reaktorlarda sintez qilinadi.



Dastlab gassipol smolasi (5) reaktorda suvsizlantirish jarayonida harorat 160 °C ni tashkil etishi kerak. Suvsizlantirib bo'lingandan keyin harorat ehtiyyotlik bilan 220 °C ga olib chiqariladi. Agar harorat ko'tarilib ketsa gudron alangalanib yonib ketishi va portlash sodir bo'lishi mumkin. Suvsizlantirilgan gassipol smolasi reaktor (6) kelib tushadi .Reaktor aralshtirgich bilan taminlangan. Jag'li maydalagichda maydalangan CaO, elak (11) ga kelib tushadi. Elakdan o'tgani jo'vali tegirmonga kelib tushadi, elakdan o'tmagani jag'li maydalagichga qaytariladi. Bunkerdan shnekli taminlagich orqali reaktorga keliladi.Reaktorda harorat 210 °C ni tashkil etishi kerak Shundagina reaksiya ketadi.

Reaksiya paytida ko'pik hosil bo'lib ko'kma tushishi mumkin Shuning uchun

aralashtirgich intensivligini taminlash lozim . Reaksiya tugagandan keyin harorat 190 -180 °C ga tuShuriladi. KMS (12) dan shestrnali taminlagich orqali reaktorga keladi va yana aralashtiriladi. Hosil bo'lgan qoplama aralashtirgichga keladi, aralashtirgichda kanifol bilan aralashtiriladi. Keyin navbatи bilan ZnO va temir II oksid keyin esa miskuporo'si, ohirida 60 °C da erutuvchi aralashtirilib turilgan reaksiyaga solinadi. Aralashtirgichda tayyor bo'lgan qoplama (14) sarf idishga va undan qadoqlash mashinasiga beriladi. Tayyorlangan mahsulotning bir qismi sotuvga bir qismi omborxonaga joylaytiriladi.

Olingen natijalarни ishlab chiqarishga tavsiyasi Har bir iste'mol qadog'i bevosita idishda, GOST 2228 bo'yicha quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan qog'ozli etiketka yoki yorliqli markirovkaga ega bo'lishi lozim:

- ishlab chiqaruvchi korxonaning nomi, uning tovar belgisi va manzili;
- ishlab chiqarish sanasi (oy, yil);
- saqlash muddati (oy, yil);

IV. YOG'-MOY CHIQINDILARI ASOSIDA XELAT TIPIDAGI KOMPLEKS HOSIL QILUVCHI ZANGGA QARSHI QOPLAMA OLISHNING LABORATORIYA TEXNOLOGIK REGLAMENTI

Mazkur texnologik reglament xelat tipidagi zangga qarshi koplamaaga mo'ljallangan ishlab chiqarishga taalluqlidir. Mazkur texnologik reglamentning barcha talablari majburiydir. Mazkur texnologik reglamentda nomi zikr qilingan me'yoriy hujjalalar ro'yxati ilovada keltirilgan.

1. Texnologik reglament

1.1. Xelat tipidagi zangga qarshi koplama mazkur texnologik reglamentning talablariga mos ravishda, belgilangan tartibda tasdiqlangan texnologik yo'riqnomalar bo'yicha tayyorlanishi lozim.

1.2. Asosiy ko'rsatkich va xarakteristikalar.

1.2.1. Xelat tipidagi zangga qarshi koplamaning fizik-kimyoviy ko'rsatkichlariga ko'ra 18-jadvalda ko'rsatilgan talab va me'yorlarga mos bo'lishi lozim.

7-jadval

Olingan mahsulotning fizik mexanik xossalari

Ko'rsatkich nomi	Ko'rsatkich xarakteristikasi va qiymati
Rangi	Qora, jigarrang
Hidi	Kuchsiz atseton hidli
Bir jinsliligi	Bir jinsli emulsiya
Konsistentsiya	Plastiklik, Pastasimonlik
Erkin natriy gidroksid, %	0,05
Erkin natriy karbonat , %	4,5
50°C	68,7
80°C	88,0
Antiresorbtion qobiliyat, % saqlanishdan	72,5
Yuvilishi, mkg/sm , 3-yuvishda	0,5

1.3 Xelat tipidagi zangga qarshi koplama GOST 12.1.007 ga muvofiq kam havfli moddalar (4 sinf xavflilik) ga kiradi. Xelat tipidagi zangga qarshi koplama

tarkibiga kiruvchi komponentlar gostdan o'tgan va tokiskologik-gigienik tomondan o'r ganilgan, ular uchun ishchi zona havosida gigienik reglamentlar o'rnatilgan.

1.4 Xelat tipidagi zangga qarshi koplama suvli eritmalar va havoda barqaror, oson alanganuvchi suyuqliklar guruhiga kirmaydi. Muzlashdan qo'rqlmaydi, muzdan tushrilgandan keyin o'z xossalari ni saqlab qoladi.

1.5 Xom ashyo va materiallarga qo'yilgan talablar

1.6.1 Vositani tayyorlash uchun amaldagi me'yoriy hujjatlarning talablariga javob beradigan quyidagi xom ashylardan foydalanilishi lozim bo'lib, ular kirish nazoratidan o'tishi va mutanosiblik sertifikatiga ega bo'lishi zarur:


8 – jadval

Xom ashylarning GOST raqamlari

Gossipol smolasi yog‘– moy sanoati chiqindisi;	GOST 10930-74
So'ndirilmagan ohak	GOST 1387-80
Uratrapin	GOST 1381-73
UnifLak	GOST.TSH 6.1-00203849
Konifol	GOST 19112-06
Karbaksimetilselyuloza	GOST 1886-79
Kaliybixromat	GOST 4459-75
Organik erituvchi	GOST 2.307-2011
Rux II oksid	GOST 202-84

Ishlab chiqarish texnologiyasi

Gossipol smolasi, konifol, rux oksid, kalsiy oksid, erituvchi , uratropin ishtirokida xelat tipidagi zangga qarshi koplama olishning printsipial texnologik sxemasi 12-rasmida keltirilgan. Antikorroziyon qoplamlar olish jarayoni lok bo'yoq sanoatida qo'llaniladigan oddiy reaktorlarda sintez qilinadi.



**12-rasm. XELAT TIPIDAGI ZANGGA QARSHI KOPLAMA OLISHNING
TEXNOLOGIK SXEMASI**

Dastlab gassipol smolasi (5) reaktorda suvsizlantirish jarayonida harorat 160 °C ni tashkil etishi kerak. Suvsizlantirib bo'lingandan keyin harorat ehtiyyotlik bilan 220 °C ga olib chiqariladi. Agar harorat ko'tarilib ketsa gudron alanganib yonib ketishi va portlash sodir bo'lishi mumkin. Suvsizlantirilgan gossipol smolasi reaktor (6) kelib tushadi .Reaktor aralshtirgich bilan taminlangan. Jag'li maydalagichda maydalangan CaO, elak (11) ga kelib tushadi. Elakdan o'tgani jo'vali tegirmonga kelib tushadi, elakdan o'tmagani jag'li maydalagichga qaytariladi. Bunkerdan shnekli taminlagich orqali reaktorga keliladi.Reaktorda harorat 210 °C ni tashkil etishi kerak Shundagina reaksiya ketadi.

Reaksiya paytida ko'pik hosil bo'lib ko'kma tushishi mumkin Shuning uchun aralashtirgich intensivligini taminlash lozim . Reaksiya tugagandan keyin harorat 190 -180 °C ga tushuriladi. KMS (12) dan shestrnali taminlagich orqali reaktorga keladi va yana aralashtiriladi. Hosil bo'lган qoplama aralashtirgichga keladi, aralashtirgichda kanifol bilan aralashtiriladi. Keyin navbati bilan ZnO va temir II oksid keyin esa miskuporo'si, ohririda 60 °C da erutuvchi aralashtirilib turilgan

reaksiyaga solinadi. Aralashtirgichda tayyor bo'lgan qoplama (14) sarf idishga va undan qadoqlash mashinasiga beriladi. Tayyorlangan mahsulotning bir qismi sotuvga bir qismi omborxonaga joylaytiladi.

1.7. Markalash

1.7.1. Har bir iste'mol qadog'i bevosita idishda, etiketka yoki yorliqda quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan holda muhrlangan markirovkaga ega bo'lishi lozim:

- ishlab chiqaruvchi korxoaning nomi, uning tovar belgisi va manzili;
- vositaning nomi va mo'ljallanishi;
- hajmi (miqdori), netto;
- qo'llanish usuli;
- ishlab chiqarish muddati (oy, yil);
- yaroqlilik muddati (oy, yil);
- saqlash sharoitlari;
- tarkibi;
- sertifikatlash haqidagi ma'lumotlar;
- tashish va saqlashdagi ehtiyyot choralar;
- mazkur texnologik reglamentning belgisi;

1.7.2. Tashish markirovkasi GOST 14192-96 bo'yicha amalga oshiriladi va «Germetik qadoq», «Yuqoriga, yumalatilmashin» degan manipulyatsion belgilari hamda, quyidagilar ko'rsatiladi:

- ishlab chiqaruvchi korxoaning nomi, uning tovar belgisi va manzili;
- vositaning nomi va mo'ljallanishi;
- hajmi (miqdori), netto;
- tarkibi;
- qo'llanish usuli;
- tashish idishi birligidagi qadoqlar soni (dona);
- partiya raqami;
- bir qadoqlash joyining massasi (kg);
- massa, brutto (kg);

- ishlab chiqarish muddati (oy, yil);
- saqlash sharoitlari va muddati (oy, yil);
- tashish va saqlashdagi ehtiyyot choralar;

1.8. Qadoqlash

1.8.1 Vosita suyuq holda TSh 6.14-16 bo'yicha zich yopiladigan 0,5 va 1,0 litr sig'imli idishga, O'z DSt 936 bo'yicha 3,0; 5,0; 10,0 va 20,0 litr sig'imli plastmassa kanistrlarga, O'z DSt 936 bo'yicha 50,0; 100,0 va 200,0 litr sig'imli plastmassa bochkalarga, GOST 17366-80 bo'yicha po'lat bochkalarga, GOST 6247-79 bo'yicha temir yo'l tsisternalariga qadoqlanadi.

Izoh: iste'molchi bilan kelishgan holda vositalarni uning saqlanishini ta'minlovchi boshqa idishlarga qadoqlashga ruxsat beriladi.

2. Xavfsizlik talablari va atrof-muhitni muhofazalash talablari

2.1 Xelat tipidagi zangga qarshi koplama bilan ishlashga 18 yoshga to'lmanlar, allergik kasalliliklarga ega, vosita komponentlariga individual chidamsizlik kishilar qo'yilmaydi.

2.2 Xelat tipidagi zangga qarshi koplama bilan ishlashga qo'yilgan personal [2] ga mos ravishda tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi.

2.3 Xelat tipidagi zangga qarshi koplamani qo'llashda yoki ishchi eritmalar tayyorlashda vositani ko'zga yoki teriga tushishini oldini olish kerak.

2.4 Xelat tipidagi zangga qarshi koplama bilan ishlaydigan personal GOST 12.4.034, GOST 12.4.103 bo'yicha individual himoya vositalari hamda maxsus kiyim bilan ta'minlanishi kerak.

2.5 Teriga vosita tushganda suv bilan yuviladi, vosita shamilgan kiyim echiladi. Ko'zni shilliq qavatiga tushganda suv bilan yuviladi, shifokorga murojaat qilinadi. Korxonada ish yuritish va mehnat muxofazasi yo'riqnomalariga amalga qilinadi.

2.6. Vositani ishlab chiqarishda, sinashda va qo'llanishda GOST 12.3.00575 bo'yicha umumiyl xavfsizlik talablariga va sanoat sanitariyasi talablariga rioya qilish lozim.

2.7. Xodimlar xavfsizlik texnikasi bo'yicha yo'riqnomasi va O'zR Sog'liqni

saqlash vazirligining 06.06.2000 y.dagi № 300-sonli buyrug'i asosida tibbiy ko'rikdan o'tgandan keyingina ishga qo'yiladi.

2.8. Ishlab chiqarishda ishlovchi shaxslar shaxsiy vositalar bilan ta'minlanishlari lozim.

2.9. Xodimlarni xavfsizlik choralariga o'qitish GOST 12.0.004-90 talablariga mos ravishda tashkil qilinishi lozim.

3. Qabul qilib olish qoidalari

3.1. Sinovlar o'tkazish uchun har bir partiyaning 3 foizi miqdorida, kichik partiyalardan esa kamida uchta qadoq namuna olinadi. Namunalar olingach, idishlar zinch yopilishi lozim.

3.2. Birorta ko'rsatkich bo'yicha qoniqarsiz natija olinsa ham, mahsulot brak deb topiladi.

3.3. Sertifikatlash sinovlari akkreditatsiyalangan laboratoriyyada mazkur texnologik reglamentning barcha talablariga rioya qilgan holda o'tkaziladi. Sinovlarning natijalari qaydnomada rasmiylashtiriladi.

4. Nazorat usullari

4.1. Vositani nazorat qilish uchun GOST 9980.2-86 bo'yicha namuna olinadi. Birlashgan namunaning hajmi - 0,1 l.

4.2. Vositaning tashqi ko'rinishi mazkur texnologik reglamentning talablariga mos kelishi bo'yicha tekshiruv GOST 9.407-84 bo'yicha vizual ko'rik yo'li bilan amalga oshiriladi.

4.3. Vositaning hidi mazkur texnologik reglamentning talablariga mos kelishi bo'yicha tekshiruv GOST 9.407-84 bo'yicha $(20\pm2)^\circ\text{C}$ haroratda organoleptik yo'l bilan amalga oshiriladi.

4.4. Ionogen bo'limgan PAV ni aniqlash GOST P51018 - 97 bo'yicha amalga oshiriladi.

4.5 Suvda erimaydigan qoldiqni aniqlash GOST P51020 - 97 bo'yicha amalga oshiriladi.

4.6 Aniogen PAV ni aniqlash GOST P51022 - 97 bo'yicha amalga oshiriladi.

4.7 Yuvish xususiyatini aniqlash GOST P51021 - 97 bo'yicha amalga oshiriladi.

4.8 Ishqoriy komponentlarni aniqlash GOST P51019 bo'yicha amalga oshiriladi.

4.9 pH ko'rsatkichni aniqlash GOST P 50550 - 93 bo'yicha bajariladi.

4.10

5. Tashish va saqlash

5.1 Xelat tipidagi zangga qarshi koplamani qadog'ini butligini kafolatlovchi va mahsulotlarni saqlash sharoitlarini saqlovchi barcha transport turlarida jo'natishga ruxsat etiladi.

5.2 Xelat tipidagi zangga qarshi koplamani quruq shamollatib turuvchi omborxonalarda 0°C dan yuqori va 25°C dan past haroratda saqlanadi, bunda shtabellarning balandligi ikki metrdan yuqori bo'lmasligi kerak.

6. Qo'llashga doir ko'rsatmalar

6.1 Xelat tipidagi zangga qarshi koplamani ishchi eritmalari tindirib qo'yish, tushirish, changlatish yoki maxsus qurilmalar qo'llash yo'li bilan qo'l yordamida yoki mexanizatsiyalashgan usulda tozalash uchun ishlatiladi.

6.2 Tozalash usuli va metodi, ifloslik turi va darajasiga bog'liq ravishda tozalashni optimal ko'rsatkichlariga erishish uchun Texnik yuvuvchi vositani quyidagi konsentratsiyali ishchi eritmalari ishlatiladi:

- uzellar, detallar, qurilmalarni, tayyor buyumlarni tozalash, yog'sizlantirish yoki konservasiyadan tushirish, organik erituvchilar o'rninga bo'yashga tayyorlash uchun 2,0-3,0 % li ishchi eritma olinadi (1 l suvga 20-30 ml vosita hisobidan);

- qurilma va boshqa sirtlarni tozalash uchun 0,2-2,0 % li ishchi eritma tayyorlanadi (1 l suvga 2-20 ml vosita hisobidan);

- transport vositalari sirtlarini, shu jumladan yuk, g'ildirak disklari, dvigatellami tozalash uchun 0,5-1,5 % ishchi eritma tayyorlanadi (5-15 ml vosita 1 l suvga hisobidan);

- ofis, ishlab chiqarish va jamoat binolarini, pollarni, zinapoyalarni,

devorlarni, eshiklarni tozalash uchun 0,2-1,0 % ishchi eritma (2-10 ml vosita 1 l suvgaga hisobidan);

- tabiiy va sun'iy matolardan iflosliklarni qo'l yordamida yoki avtomatlashtirilgan usulda tozalash uchun ifloslik darajasiga bog'liq ravishda 0,5-3,0 % li ishchi eritma (5-30 ml vosita 1 l suvgaga hisobidan).

6.3 Xelat tipidagi zangga qarshi koplama ishchi eritmasini tavsiya qilingan ekspozitsiya vaqtiga tozalanayotgan sirtda 5-30 min.

6.4 Xelat tipidagi zangga qarshi koplama eritmalarini qo'llashni harorat rejimi (10-70)°S. Harorat oshishi bilan yuvish samaradorligi ortadi. Tozalashni maksimal samaradorligi ishchi eritma kamida 30 °C bo'lganda.

6.5 1 m tozalanayotgan sirtga texnik yuvuvchi vositani ishchi eritmasi sarfi 100,0-150,0 ml ni tashkil qiladi.

6.6 Xelat tipidagi zangga qarshi koplama ishchi eritmalarini bilan sirtlarni tozalashni tavsiya qilingan rejimlari jadval 20 da keltirilgan.

9 – jadval

Xelat tipidagi zangga qarshi koplamaning xususiyatlari

Sirtni ifloslanganlik darajasi	Konsentrasiya % da, (vosita)	Harorat	Izolyatsiya vaqtি
Past	1,0-3,0	0 - 40°C	24 soat
O'rta	0,1-3,0	Qizdirishsiz	24 soat
Yuqori	2,0-3,0	30 - 50°C	24soat

6.7 Xelat tipidagi zangga qarshi koplamani ishchi eritmalarini talab qilingan konsentrasiyalari, ekspozisiya vaqtiga va tozalash harorti har bir xolat uchun ifloslik turi va darajasiga, tozalanayotgan sirt turiga va qo'llanilayotgan qurilmalarni texnologik imkoniyatlariga ko'ra mutaxassislar tomonidan belgilanadi.

7. Ishchi eritmalar tayyorlash

7.1 Xelat tipidagi zangga qarshi koplama mastikaning ishchi eritmalarini tayyorlash mo'rili ventilyatsiya bilan jitozlangan xonalarda, turli materiallar (zanglamaydigan po'lat, polietilen, shisha) dan tayyorlangan qopqoqli sig'implarda olib boriladi.

7.2 Xelat tipidagi zangga qarshi koplamani ishchi eritmasini tayyorlash uchun SanPiN 10124 RB 99 talablariga javob beradigan vodoprovod suvi ishlatiladi.

8. Qo'llanishdagi sifatni nazorat qilish usullari

8.1 Xelat tipidagi zangga qarshi koplamani to'liq yuvilganligini nazorat qilish uchun yuvish suvini va tozalanayotgan sirtni ishqorligi universal indikator qog'izi bilan nazorat qilinadi.

8.1.1 Universal indikator qog'izi tozalangan sirtga tekiziladi yoki yuvish suvini oxirgi qismiga tushiriladi. Universal indikator qog'izi rangini o'zgarishi vodorod ionlari konsentrasiyasini ma'lum qiymatiga mos keladi (yo'riqnomaga mos ravishda rang shkala bo'yicha aniqlanadi). Indikator qog'ozini yashil-ko'k rangga bo'yalishi pH 11 dan kattaligini va qo'shimcha yuvish kerakligini ko'rsatadi.

9. Ishchi eritmalarida vosita konsentrasiyasini (massa ulushini) nazorat qilish

9.1 Xelat tipidagi zangga qarshi koplamani ishchi eritmasi konsentrasiyasini aniqlash kislota-asosli titrlash asosida amalga oshiriladi.

9.2 Xelat tipidagi zangga qarshi koplamani (20 ± 1) ml ishchi eritmasi konussimon kolbaga joylanadi. Eritmaga fenolftaleinni spirtli eritmasidan 1-2 tomchi qo'shiladi va 0,02 N li xlorid kislota eritmasi bilan pushti rang yo'qolguncha titrlanadi.

10.Teriga va shilliq qavatlarga vosita ta'sir qilganda hamda zaharlanganda xavfsizlik usullari va birinchi tibbiy yordam

10.1 Xelat tipidagi zangga qarshi koplama bilan ishlashga 18 yoshga to'limganlar, allergik kasalliklarga ega, vosita komponentlariga individual chidamsizliklik kishilar qo'yilmaydi.

10.2 Xelat tipidagi zangga qarshi koplama bilan ishlashga qo'yilgan personal [2] ga mos ravishda tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi.

10.3 Xelat tipidagi zangga qarshi koplamani qo'llashda yoki ishchi eritmalar tayyorlashda vositani ko'zga yoki teriga tushishini oldini olish kerak.

10.4 Xelat tipidagi zangga qarshi koplama bilan ishlaydigan personal GOST 12.4.034, GOST 12.4.103 bo'yicha individual himoya vositalari hamda maxsus kiyim

bilan t.a'min1anishi kerak.

10.5 Teriga vosita tushganda suv bilan yuviladi, vosita shamilgan kiyim echiladi. Ko'zni shilliq qavatiga tushganda suv bilan yuviladi, shifokorga murojaat qilinadi. Korxonada ish yuritish va mehnat muxofazasi yo'riqnomalariga amalga qilinadi.

11.Transportirovkalash va saqlash

11.1 Xelat tipidagi zangga qarshi koplamani qadoqni butligini kafolatlovchi va mahsulotlarni saqlash sharoitlarini saqlovchi barcha transport turlarida jo'natishga ruxsat etiladi.

11.2 Xelat tipidagi zangga qarshi koplamani quruq shamollatib turuvchi omborxonalarda 0°C dan yuqori va 25°C dan past haroratda saqlanadi, bunda shtabellarning balandligi ikki metrdan yuqori bo'lmasligi kerak.

12.Ishlab chiqaruvchi kafolati

- a.Transportirovka va saqlash shartlari bajarilganda texnik yuvuvchi vositani ishlab chiqaruvchi sifatni TNPA talablariga mos kelishini kafolatlaydi.
- b. Xelat tipidagi zangga qarshi koplama yaroqlilik muddati - ishlab chiqarilgan sanadan boshlab 12 oy.

V.IQTISOD QISMI

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XORAZM VILOYATI
URGANCH SHAHARI**

«XELAT INVEST MJ» korxonasi ushbu Biznes reja Urganch yog'-moy AJ chiqindisidan «Xelat tipidagi zangga qarshi qoplama» ishlab chiqarishni tashkil qilish maqsadida ishlangan

BIZNES REJA VA TEXNIK IQTISODIY ASOSNOMA

1. KIRISH

Respublikamiz hukumati tomonidan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularga keng imkoniyatlar yaratib berishga alohida e'tibor qaratilmoqda va har qanday byurokratik to'siqlarni bartaraf qilish borasida qator qaror va farmonlar chiqarildi.

Jumladan:

- 1. 2016 yil 29 dekabr kuni O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi farmoni .*
- 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev tomonidan 2016 yilning 5 oktyabrdagi imzolangan PF-4888-sonli “Tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilish, ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash to'g'risida”gi farmoni*
